

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TABIHY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKUL'TETI

Fiziologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi

Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan

AMALIY MASHG'ULOTLAR

uchun ishlanmalar

(Ikkinchi yarim yillik uchun)

IMOMOV OTABEK



Namangan - 2014

Amaliy mashg'ulotlari uchun yaratilgan ushbu ishlanmalar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012 yil 26 – dekabrdagi 507 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Toshkent davlat texnika universitetida yaratilgan “Hayot faoliyati xafsizligi fani”dan namunaviy fan dasturi asosida, Nam DU Fiziologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasida yaratilgan ishchi o'quv dasturi rejasiga asosan tayyorlandi.

Ishlanmalar turli yo'naliш bakalavriat ta'lim bosqichi uchun 4 – semestrda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan hamda NamDU Fiziologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasining 2014 yil 26 avgustdagi 1 – sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Tuzuvchi

o'qt. O.N. Imomov

Tarizchi:

dots. A.N. Aripov

1 - mavzu. Xavf, xavfsizlik madaniyati; HFX aksiomalari

Ishdan maqsad. Xavfsizlik madaniyati va XFX aksiomatikasi haqida mahlumotga ega bo'lish.

Har yili Rossiya federatsiyasida 13 mln odam jarohatlanishi va zaharlanishi Rossiyalik mutaxasislar tomonidan mahlumot keltiriladi. Dunyo bo'yicha bu 70 mlniga yaqindir. Xavfsizliklarga rioya qilinmasligi natijasida nobut bo'ladigan odamlarning 30% erkaklar, 23% ayollar, 47 % voyaga yetmaganlarni tashkil etadi. Bunday holatlар O'zbekistonda ham uchraydi.

Bunday holatlarni assosiy sababi nimadan iborat? Xavfsizlik qoidalari yo'qmi? Bor, ammo hamma ham unga bir xil amal qilmaydi. Xavfsizlik qoidalari amal qilmaslik yuqorida statistik mahlumotlardagi sonlarning ortishiga olib keladi. Xavfsizlik qoidalari barcha sohalar va kundalik faoliyatga doir mavjud. Masalan, yo'l harakati xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi, turli kasallikkardan himoyalanish xavfsizligi va profilaktikasi, mehnat xavfsizligi va hokazo. Bunday tushunchalar maktabgacha tahlim muassasalaridan boshlab oliv o'quv yurtlarigacha va turli tizimlarda o'qitiladi. Xavfsizlik qoidalarini katta yoshdagi deyarli barcha odamlar biladi ammo unga hamma bir xil amal qilmasligi bu xavfsizlik madaniyati degan tushunchani keltirib chiqaradi va xavfsizlik madaniyati hammada har xil shakllanadi. Xavfsizlik madaniyatini yoshlarda to'g'ri shakllantirish uchun uni o'quv muassasalarida o'qitishning o'zi yetarli emas. CHunki bola xavfsizlik haqida auditoriyada o'qib turib, hayotda boshqa manzarani ko'rsa unda ikkilanish paydo bo'ladi va ko'proq ko'rgan jarayoniga amal qiladi. Masalan, maktabda yo'l harakati qoidalarini o'qituvchi bolaga o'rgatsa, ammo u ko'chada uni teskari holatini ko'rsa xuddi shu holat yuzaga keladi.

Nima qilish kerak? Yoshlarda xavfsizlik madaniyatini to'g'ri shakllantirish uchun ijtimoiy muhit sog'lom bo'lishi talab etiladi. Yahni atrofdagi katta yoshdagi odamlar xavfsizlik qoidalari amal qilib, o'rnak bo'lsa keyin xavfsizlik madaniyati jamiyatda normal shakllanadi. Xavfsizlik madaniyatini to'g'ri shakllantirish oilada, o'quv muassasalarida, ko'cha va jamoat joylarida tengdaniga shakllantirilsa so'ng natija berishi mumkin.

Afsuski bugungi kunda bu masalaga turli joylarda turlicha yondoshish natijasida odamlarda bu turlicha shakllanib baxtsiz hodisalar va odamlarning jabrlanishlarining kelib chiqish ehtimoli yuqori bo'lib kelmoqda. Bu bugungi hayotimizdagи eng og'riqli hal qilinishi kechiktirilib bo'lmaydigan muhim masala.

Xavfsizlik madaniyati ko'rinishlari nihoyatda ko'p bo'lib, quyidagicha:

Jismoniy madaniyat, ovqatlanish madaniyati, kiyinish madaniyati, gigienik madaniyat, muomila madaniyati, mehnat madaniyati, jinsiy madaniyat, yo'l harakati, yong'in, elektr va boshqa xavfsizliklarga rioya qilish madaniyati va hokazo. Ushbu madaniyatlarining hammasi insonlar xavfsizligini tahminlashda ishtrok etadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi aksiomatikasi. Hayot faoliyati xavfsizligi nazariyasining quyidagi turdagи aksiomatikalari mavjud:

1. Har qanday harakatda xavf mavjud.

Bu aksiomatikani quyidagicha tushuntirish mumkin: har qanday kundalik faoliyatimizda, ishlab chiqarishda va boshqa ishlarda oddiy xavfsizlik qoidalarga amal qilinmasa odamlarni jabrlanishi ehtimoli ortib boradi.

2. Har qanday turdagи faoliyatda yaxshi sharoit maksimal effekt beradi.

3. Tabiiy jarayonlarga salbiy antropogen tafsirlar atrof – muhitning buzilishiga olib keladi.

4. Atrof – muhitning buzilishi insonga salbiy tafsir ko'rsatadi.

5. Xavfsizlikni real tashkil qilish inson va atrof muhit uchun ham katta ahamiyatga ega.

2 – mavzu. Tavakkalning turlari, uni boshqarish tamoyillari, bosqichlari va uslublari; xavflar ta`sirida yuzaga keladigan zararlar va salbiy oqibatlar

Dars maqsadi: Talabalarga hayot faoliyatini xavfsizligini nazorat qilish, boshqarish va moliyalashtirish haqida ma'lumotlar berish.

Asosiy savollar:

1. Hayot faoliyatini xavfsizligi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati

2. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish, moliyaviy ta'minlash

Tayanch iboralar: davlat siyosati; mehnatni muhofaza qilish; mulk; modda; prokratura; davlat nazoratlari; Gosgortexnadzor; bosqich; sex; sanoat; moliyaviy ta'minlash; me'yor.

1. Hayot faoliyatini xavfsizligi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan inson hayot faoliyatining ajralmas qismi bo'lmish mehnat qilishi sharoitini yaxshilash, uning qonuniy asoslarini mustahkamlash Davlatning ustuvor ishlaridan etib belgilandi.

Bu sohada olib borilayotgan ishlar avvalom bor insonparvarlik, g'amxo'rlik va fuqarolarning sog'lig'i-salomatligi, tinchligi, farovonligi maqsadidan kelib chiqadi.

«Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunda davlat siyosati alohida belgilab berilgan.

Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati (4-modda) shunday deyilgan:

- korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalarga nisbatan xodimning hayoti va sog'ligi ustuvorligi;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni boshqa yo'naliшlar bilan muvofiqlashtirib borish;
- mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'iy nazar barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasida yagona tartib - qoidalar belgilab qo'yish;
- mehnatning ekologiya jihatidan xavfsiz sharoitlari yaratilishini va ish joylarida atrof muhit holati muntazam nazorat etilishini ta'minlash;
- korxonalarda mehnatni muhofaza qilish talablari hamma joyda bajarilishini nazorat qilish;
- mehnatning muhofaza qilishning mablag' bilan ta'minlashda davlatning ishtirok etishi;
- oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlari mehnat muhofazasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash;
- xavfsiz texnika, texnologiyalar va xodimlarning himoyalash vositalari ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish;
- fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vatanimiz va chet el ilg'or tajribasidan keng foydalanish;
- ishlovchilarni maxsus kiyim va poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, parvez ovqatlari bilan bepul ta'minlash;

- korxonalarda mehnatning sog'lom va xavfsiz shart - sharoitlarini yaratishga ko'maklashuvchi soliq siyosatini yuritish;

- ishlab chiqarishdagi har bir baxtsiz hodisani va har bir kasb kasaligini tekshirib chiqish hamda hisobga olib borishning va shu asosda ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar hamda kasb kasalliklariga chalinishlar darajasi haqida aholini xabardor qilishning majburiyligi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga yo'liqqan ishlovchilarining manfaatlarini ijtimoiy himoyalash;

- kasaba yushmalar va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar va alohida shaxslarning mehnatini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- mehnatni muhofaza qilish muammolarini hal etish chog'ida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish prinsiplariga asoslanadi.

Davlat siyosati olib borishda, albatta, jamoatchilik, turli jamoat birlashmalari qarorlari, fikrlarini inobatga olish ham qonuniy himoyalangan.

Jumladan, qonuning «Jamoat birlashmalarning mehnatni muhofaza qilish muammolariga oid qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etishi» (6-moddasi) quyidagicha ifodalanadi:

Korxonalar, mutaxassislar, fuqarolar mehnatini muhofaza qilish muammolarini hal etish uchun O'zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonuniga muvofiq amal qiladigan jamoat birlashmalari uyushishlari mumkin.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari, nazorat qilish idoralari, shuningdek, korxonalar bu birlashmalarga har tomonlama yordam va madad ko'ssatadilar hamda mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash masalari bo'yicha qarorlar tayyorlash va qabul qilishda, ular ishlab chiqqan nizomlar va tavsiyalarni hisobga oladilar.

7-modda. Mehnatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalar.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarini va fuqarolari xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida ishlarni bajarayotganlarida, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ularda ko'zda tutilgan talablar agar o'zgacha shartlashilmagan bo'lsa, ushbu Qonunga, O'zbekiston Respublikasini Mehnat to'g'risidagi Qonunlariga muvofiq qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlayotgan chet fuqarolari uchun mehnatni muhofaza qilish masalalariga doir munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari manfaatdor tomonlarning o'zaro bitimlari bilan belgilab qo'yiladi.

2. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish, moliyaviy ta'minlash

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofazasi «Mehnatni muhofaza qilish» qonuniga binoan (5-modda): Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

Davlat strukturasidagi barcha bo'limlar bu bilan shug'ullanib, boshqarib borishadi.

Sanoat korxonalarida mehnat qonunlarining buzilmasligining tarmoq nazoratini vazir va birlashmalar bo'y sunish tartibi bilan amalga oshiradi.

Hayot faoliyati xavfsizligining barcha sohalari bo'yicha bajariladigan tadbirlar davlat byudjeti, korxona, tashkilot, homiyalar va boshqalar tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

«Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 11-moddasi ushbuni tasdiqlab, unda quyidagicha ko'rsatilgan:

Mehnatni muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlash davlat tomonidan, shuningdek mulk shaklidan qat'iy nazar jamoat birlashmalar, korxonalarning ixtiyoriy badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Mehnatni muhofaza qilish uchun tegishli byudjetlardan alohida qayd bilan ajratiladigan byudjet mablag'lari (Respublika va mahalliy) boshqaruv hamda nazorat idoralarini saqlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyaviy ta'minlash, mehnatni muhofaza qilishga oid davlatning aniq maqsadga qaratilgan dasturlarini bajarish uchun foydalaniladi.

Har bir korxona mehnatni muhofaza qilish uchun zarur mablag'larni jamoa shartnomasida belgilanadigan miqdorda ajratadi. Korxonalarning xodimlari ana shu maqsadlar uchun qandaydir qo'shimcha chiqim qilmaydilar.

Korxonalar o'zining xo'jalik, tijorat, tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyatidan keladigan foyda (daromad), shuningdek boshqa manba'lар hisobida mehnatni muhofaza qilishning markazlashtirilgan fondlarini tashkil etish huquqiga ega (O'zbekiston Respublikasining 1998 y. 1 may Qonuni tahririda. - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y. 5-6 son, 102-modda).

Mehnatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mablag'larni boshqa maqsadlarga ishlatalish mumkin emas.

Fondlarni tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya Kengashi ishtirokida belgilanadi.

Mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarishda korxonalarning iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash ham qonunda batafsil ko'rsatib o'tilgan. Unda (12-modda) korxonalar foydasining mehnatni muhofaza etishga oid adabiyotlar, plakatlar, boshqa targ'ibot vositalarini nashr etish hisobiga hosil bo'lgan qismiga, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va loyiha konstrukturlik tashkilotlari foydasining jamoani va ishlovchilarni yakka tartibda himoyalash vositalarning yangiliklarini yaratish, ishlab chiqarish va mavjud vositalarni sotish hisobiga bo'lgan qismiga imtiyozli soliq solinadi.

Qonunning 216-moddasida: Mehnatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratiladigan mablag'larning ajratilishi, uni sarflash, foydalanish haqida aytilgan.

Mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish uchun belgilangan tartibda mablag'lar va zarur materiallar ajratiladi. Bu mablag' va materiallarni boshqa maqsadlarga sarflash man etiladi. Mazkur mablag' va materiallardan foydalanish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Mehnat jamoalari, ularning vakillik organlari mehnatni muhofaza qilishga mo'ljallangan mablag'lardan foydalanishini tekshirib boradilar.

Mehnatni muhofazalashda ish jarayonida turli xil zaharlanishni oldini olish, davolash ishlari bo'yicha ham me'yoriy yordam ko'rsatilgan.

Qonunning 217-moddasida: Xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazli sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash keltirilgan.

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan me'yorlar bo'yicha:

- sut (shunga teng boshqa oziq-ovqat mahsulotlari);
- davolash profilaktika oziq-ovqat;
- gazli sho'r suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun);
- maxsus kiyim bosh, maxsus poyabzal, boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta'minlanadilar.

Bunday ishlarni ro'yxati, beriladigan narsalarning normalari ta'minot tartibi va shartlari jamoa shartnomalarida, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan xodimlarning vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

Albatta, yuqorida keltirilgan qonun moddalarini fuqarolarning mehnat qilishida hayot faoliyati xavfsizliginining asosiy qismi bo'lmish mehnat muhofazasini amalga oshiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati qonuning qaysi moddasida keltirib o'tilgan?
2. Mehnatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnoma deganda nimani tushunasiz?
3. Mehnatni muhofaza qilishdaprokraturaning vazifasi nimadan iborat?
4. Mehnatni muhofaza qilishning maxsus davlat nazorat tashkilotlariga qaysilar kiradi va ularni vazifalarini tushuntiring?
5. Davlat nazorati tashkilotlari qanday huquqlarga ega?
6. Ma'muriyatning uch bosqichli nazorat usuli deganda nimalar hisobga olinadi?
7. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish qanday amalga oshiriladi?
8. Mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga qanday me'yorlar belgilanadi?.

3 – mavzu. Siyosiy va harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy, demografik va ekologik xavfsizlik

Ishdan maqsad: Mintaqamizdagi siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va ekologik xavfsizliklar holatini o'rganish.

Siyosiy va harbiy havfsizlik. XX asrning ohirlarida yuz bergan voqealar halqaro munosabatlar tizimining tubdan o`zgarishiga olib keldi. Geostrategik kuchlar muvozanatining o`zgarishi va ko`p qutbli kuchlar markazining yuzaga kelishi, ular orasida dunyo hukmronligi uchun kurashning avj olib ketishi, ayrim davlatlarning yakka hukmronlikka bo`lgan ochiqdan-ochiq da`volari shular jumlasidandir.

Ikki qutbdagi kuchlar muvozanatiga asoslangan havfsizlik tizimining parchalanishi halqaro munosabatlarda davlatlar uchun keng imkoniyatlar ochib berish bilan birga, qator havf-hatarlarni ham keltirib chiqardi. Natijada: mintaqaviy, etnik va milliy mojarolar; ekologik muammolar; halqaro terrorizm va diniy ekstremizm; noqonuniy qurol savdosи; narkobiznes kabi havf-hatarlar turli ko`rinishlarda namoyon bo`lmoqda. Bu esa, o`z

navbatida, dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va ekologik havfsizligiga o`zgacha yondashishga undayapti.

Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy va geoijtisodiy ahamiyatiga ko`ra dunyoning muhim hududi sifatida e`tirof etiladi. CHunki u tabiiy resurslarga boy ulkan geosiyosiy maydonni egallagan, umumiy infratuzilmaga ega hudud bo`lib, SHimol va Janub, SHarq va o`arbning o`ta muhim transport-kommunikatsiya yo`llarini bog`laydi.

Markaziy Osiyoda havfsizlikka tahdid solayotgan omillar orasida bugungi kunda diniy va siyosiy ekstremizm, halqaro terrorizm va narkobiznes kabi havf-hatarlar globallashuv oqibatida keng va tez tarqalayapti. Diniy ekstremistik tashkilotlarning ichki beqarorlikni keltirib chiqarishga qaratilgan faoliyati nafaqat musulmon aholisiga ega bo`lgan davlatlarda, balki MDH va Evropa mamlakatlariada ham kuzatilmoqda.

Diniy ekstremizm, ma`lumki, katta moliyaviy tarmoqlar orqali tashqi kuchlar tomonidan boshqarib kelinadi. Hozirgi kunda eng og`ir uyushgan jinoyatchilik halqaro terrorizmdir. Terrorizm kecha yoki bugun vujudga kelmagan.

"Terror" lotin tilidan olingan bo`lib, qo`rquv, dahshat, hatar ma`nolarini anglatadi. Halqaro munosabatlarda shu kungacha terrorizm atamasiga universal izoh mavjud emas. Har bir davlat uni o`z yondashuvlaridan kelib chiqqan holda talqin etishga harakat qiladi. Masalan, birgina AQSHda bu borada bir qancha qarashlar mavjud.

AQSH Mudofaa vazirligining izohiga ko`ra, terrorizm ma`lum bir guruhlarning siyosiy, diniy va g`oyaviy noplari maqsadlarga erishish uchun hokimiyat va jamiyat orasida qo`rquv tuyg`usini uyg`otishga qaratilgan zo`ravonlik harakatidir.

AQSH hukumati agentliklarining e`tirof etishicha, siyosiy zo`ravonlikning barcha ko`rinishlari terrorizmdir.

Federal qidiruv byurosi tomonidan terrorizm shahs yoki ma`lum bir ob`ektga noqonuniy kuch ishlatish, zo`rlash yo`li bilan hukumatni qo`rkitish yoki majburlash orqali siyosiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishish harakati sifatida ko`rsatilgan.

Davlat departamentining ta`rificha, terrorizm davlat ichidagi ba`zi guruuhlar yoki boshqa bir davlatning josulari tomonidan jamiyatga ta`sir etish maqsadida noharbiy ob`ektlarga oldindan ko`zlangan va rejalashtirilgan holda olib boriladigan, siyosiy motivga ega bo`lgan zulm va zo`ravonlikdir.

Ma`lumki, ko`p yillardan beri Afg`onistonda davom etib kelayotgan beqarorlik terrorizm va diniy ekstremizmning tegirmoniga suv quymoqda. SHuning uchun Markaziy Osiyo davlatlarida mustaqillikning birinchi yilidayoq Afg`onistonda tinchlik va barqarorlikni ta`minlash masalasi ham milliy, ham mintaqaviy havfsizlik borasida ustuvor vazifa sifatida e`tirof etildi.

Bugungi kunda afg`on narkotiklari muammosi o`ta dolzARB masalaga aylandi. Urushdan so`ng mamlakatni qayta tiklashning halqaro hamjamiyat tomonidan orqaga surilishi, iqtisodiy-gumanitar yordamning etarli darajada ajratilmagani aholining aksariyat qismini og`ir ahvolga solib qo`ydi va mamlakatda ommaviy ravishda narkotiklar etishtirish va ishlab chiqarish boshlandi. BMTning narkotik moddalar va jinoyatchilik bo`yicha

Boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, Afg'onistonda opium ishlab chiqarish 2005 yilda 4000 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yili bu ko'rsatkich 6100 tonnaga etgan. Katta miqdorda etishtirilgan narkotik moddalarni realizatsiya qilish, tabiiyki, o'ziga hos narkotrafikni shakllantirishni taqozo etadi. Bu holat, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mintaqasiga katta tahdid soladi. Mintaqadagi beqarorlik esa dunyo havfsizlik tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

YUqorida aytiganidek, Markaziy Osiyo insoniyat taraqqiyotida, halqaro kuchlar muvozanatida doimo muhim rol' o'ynab kelgan. Albatta, mintaqaning geosiyosi va geoiqtisodiy omillari yirik davlatlarning e'tiborini o'ziga jalg etmasdan qolmaydi. Lekin ularning manfaatlari doim ham mintaqada davlatlarining manfaatiga mos kelavermaydi. SHu bois, eng katta havf yirik davlatlarning o'zaro manfaatlaridagi qarama-qarshiliklardir. SHuning uchun mintaqada davlatlari o'z milliy va mintaqaviy manfaatlarining ustuvorligini saqlagan holda tashqi siyosat, havfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb muammolari haqida umumiyl mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Agar muayyan bir davlat qo'shni davlatlar manfaatini hisobga olmagan holda o'z manfaatlarini o'arb manfaatlariga moslashtirishga urinsa, mintaqaviy havfsizlik borasida so'z borishi mumkin emas. SHuningdek, mintaqada davlatlari milliy manfaatlarining o'zaro qarama-qarshi pozitsiyalari vaziyatni yanada mushkullashtiradi. SHuning uchun mazkur masalalar borasida koordinatsion ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy tashkilotlarning rolini oshirish zarur.

Hozirgi vaqtida halqaro, mintaqaviy, milliy havfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari o'zaro chambarchas bog'liqki, mavjud tahdidlar ko'lамини hisobga oladigan bo'lsak, alohida bir davlatning o'z milliy havfsizligini mintaqaviy va halqaro havfsizlikdan uzilgan holda ta'minlashi o'ta mushkul vazifa hisoblanadi. SHu bois, halqaro munosabatlarning hozirgi bosqichida ko'ptomonlama hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumjahon tinchligini ta'minlash muammosi hozirgi zamon halqaro munosabatlarda markaziy o'rnlardan birini egallagan holda, uning asoslari BMT Nizomida o'z ifodasini topgan hamda 1970 yil 16 dekabrdagi Halqaro havfsizlikni mustahkamlash to'g'risidagi deklaratasiyada, BMT Bosh Assambleyasining 1986 yil 5 dekabr' va 1987 yil 7 dekabrdagi "Halqaro tinchlik va havfsizlikning yalpi tizimini yaratish to'g'risida"gi qarorlarida belgilab berilgan yalpi halqaro havfsizlik kontsepsiyasida, shuningdek, 1988 yil 7 dekabrda qabul qilingan "Halqaro tinchlik va havfsizlikni BMT Nizomiga muvofiq mustahkamlashga yalpi yondashuv to'g'risida"gi qarorda rivojlantirilgan .

Halqaro havfsizlik huquqi manbalariga universal shartnomalar (BMT Nizomi, qurolsizlanish sohasidagi bitimlar), mintaqaviy shartnomalar (mintaqaviy havfsizlik tashkilotlari nizomlari, qurolsizlanish sohasidagi bitimlar, ishonch choralarining o'rnatilishi va yadrosiz hududlarning barpo etilishi) va ikki tomonlama bitimlar (tinchlik va do'stlik to'g'risida, qurolsizlanish to'g'risida va hokazo) kiradi. Umumiy havfsizlik, mintaqaviy havfsizlik, qurolsizlanish va ishonch choralarini halqaro havfsizlik huquqining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Taridhan ma'lumki, kollektiv havfsizlik tizimlarini siyosiyashtirish salbiy oqibatlarga olib keladi. Kollektiv havfsizlik tizimlari mintaqaviy va universal darajada bo'lib, bu ikki element bir-biriga mos bo'lsagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Mintaqaviy havfsizlik tizimi uning tarkibiga kiruvchi milliy havfsizlik tizimlariga zid kelmasligi, aksincha, ularning

o`zaro uyg'unligini ta'minlashi hamda tahdidlarga qarshi kurashda ularning harakatlarini birlashtirishga qaratilishi darkor.

Mintaqaviy kollektiv havfsizlikni ta'minlash choralari tizimlarini universal havfsizlik tizimi bilan uzviy holda olib borish halqaro huquq ustuvorligini ta'minlash va yuklatilgan majburiyatlarning to'liq bajarilishini talab etadi. Bu esa, o`z navbatida, davlatlar manfaatini inobatga oluvchi yangi dunyo tartibotini shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur muammolarni hal etish mehanizmi sifatida halqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning rolini oshirish dunyo hamjamiyatining asosiy vazifasidir. Buning uchun har bir davlat dunyoda sodir bo`layotgan jarayon va geosiyosiy holatni, boshqa davlatlarning milliy manfaatlarini inobatga olgan holda o`z milliy manfaatlarini qayta ko`rib chiqishi va murosaga kelishi zarur.

Mintaqa davlatlarining barqaror rivojlanishi ko`p jihatdan mavjud havf-hatarlarni anglab etishga, ularni o`z vaqtida aniqlash va bartaraf etish uchun samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga bog'liq. Demak, bu jarayonda mintaqa davlatlariga, avvalambor, siyosiy birlashuv va iqtisodiy integratsiya kerak.

Markaziy Osiyoda uzoq asrlar davomida umumiylashish tarzi shakllangan. Hududning tarihan birligi (dini, tili, urf-odatlari, yig'ilib qolgan muammolari) integratsion jarayonlarni rivojlantirishda asosiy birlashtiruvchi omil bo`lib hizmat qiladi. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlariga to`htalar ekan, Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydi: "Bu mintaqada muayyan bir shaklda hamma vaqt integratsiya bo`lib kelgan. Markaziy Osiyo halqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g`ayrat sarflab, o`z kelajaklarini qurishlari zarurligini yana qayta his etdilar".

2006 yil 23 iyunda Minsk shahrida Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotining Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyasi to`g'risida bayonnomma qabul qilindi. 2007 yil 28 fevralda O`zbekiston Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi tomonidan "Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotining Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyasi to`g'risidagi bayonnomani ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun Senat tomonidan 30 martda ma`qullandi va 2 apreldan kuchga kirdi.

Mustaqillik qo`lga kiritilgandan keyingi qisqa tarihiy vaqtida halqaro va mintaqaviy harakterga ega bo`lgan turli hil tashkilotlarga, mintaqa havfsizligiga va barqarorlikka asos bo`la oluvchi birlashmalarga ehtiyoj tug'ilishi tabiiy hol edi. SHU maqsadda Kollektiv Havfsizlik SHartnomasi Tashkiloti (KHSHT) va SHanhay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) tashkil etildi. Ta`kidlash joizki, O`zbekiston har ikkala tashkilotning a`zosi hisoblanadi. KHSHT va SHHT mehanizmlari ishga tushishi bilan mintaqadagi mamlakatlar milliy va mintaqaviy havfsizlikni ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish, harbiy-siyosiy integratsiyani kuchaytirish, himoya salohiyatini yanada mustahkamlash borasida muzokara yuritish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Bu ikki tuzilma doirasida o`tkazilayotgan ko`ptomonlama hamkorlikka oid ishlarni tahlil qilib shunday hulosa chiqarish mumkin: mazkur tashkilotlar Osiyo qit`asining hozirgi hayotida muhim omil sifatida ko`zga tashlanmoqda.

Iqtisodiy va ijtimoiy havfsizlik.

Milliy iqtisodiy havfsizlik, huquqshunos V.Pan'kovning talqinicha, «...iqtisodiyotning shunday holatiki, bu uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning bir zayl davom etishiga halal beradigan, aholining erishilgan hayot darajasini izdan chiqarib, jamiyatda kuchli ijtimoiy tanglikni yuzaga keltiradigan, shuningdek, davlatning mavjudligiga havf tug'diradigan tashqi va ichki omillar ta'siriga bardoshli «immunitet»i bilan tavsiflanadi».

«Iqtisodiy havfsizlik» tushunchasi, albatta, «bardoshlilik»ni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, iqtisodiy havfsizlikning aksariyat belgilari «bardoshli» tushunchasiga uyg'un, zero, iqtisodiyotning huquqiy bardoshliligi uning tarkibiy unsurlari, tizim ichidagi vertikal, gorizontal va boshqa aloqalarning mustahkam va ishonchlilagini, «ichki» va «tashqi» bosimga chidamlilagini aks ettiradi.

O'zbekistonning milliy manfaatlarini shahs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, halqaro, informatsion, harbiy, chegaraviy, ekologik va boshqa sohalardagi manfaatlarining uyg'unligi sifatida qarash mumkin.

Ba'zi huquqshunoslarning fikricha, davlat manfaati degan ilmiy tushuncha huquqshunoslilik uchun asosiy kategoriya sanaladi. Davlat va davlat hokimiyyati fenomeni bilan u yoki bu tarzda bog'langan barcha ijtimoiy hodisalar, jumladan, davlat manfaatlarining huquqiy asoslangani va ularni huquqiy tartibni ta'minlash sohasida qo'llashning tashkiliy-huquqiy shakl va usullari talqini mazkur kategoriyani to'g'ri tushunishga bog'liq; zero, jamiyat negizining, davlat va hokimiyyat qurilishi, fuqarolar haq-huquqlari kafolatining huquqiy asoslari ommaviy huquqning tub masalalari hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash tizimiga yondashishning yana bir yo'nalishi borki, bu uning suvereniteti — mustaqilligidir. Sof holda bunday yo'nalish hech qaerda aks etmaydi, biroq davlat va huquq nazariyasining umumiyligi qoidalari tahlil etib, uni alohida huquqiy yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatish lozim.

Bundan tashqari, iqtisodiy havfsizlik milliy iqtisodning mustaqilligini, uning barqarorligi va bardoshlilagini, izchil yangilanib borishi va takomillashuvini ta'minlaydigan shart-sharoit va omillar majmui sifatida davlatga o'zining mustaqilligini ta'minlash va tashqi havflardan himoya qilish imkonini beradi.

Biroq yuridik adabiyotlarda yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarga asoslangan sintetik ta'riflar ko'proq uchraydi.

Iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash muammosini tahlil etgan S.Glaz'ev iqtisodiy havfsizlikka «mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojini mustaqil ta'minlash nuqtai nazaridan jamiyatning iqtisodiy va ishlab chiqarish kuchlari holati, davlatning milliy havfsizligi talab darajasida qo'llab-quvvatlanishi, shuningdek, global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining zarur darajadaligi» deya ta'rif beradi.

«Iqtisodiy havfsizlik» tushunchasi haqida yuqorida qayd etilgan turli hil nuqtai nazarlar bo'yicha munozaraga kirishmagan holda shuni ta'kidlash lozimki, ularning deyarli barchasi iqtisodiy havfsizlikka davlat apparati, qurolli kuchlar, jismoniy va yuridik shahslar — ho'jalik yurituvchi sub'ektlar orqali davlatning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash ma'nosida qaraydi, holos. Vaholanki, hokimiyatning mustaqilligi egasi va yagona manbai

sifatida aynan halq ijtimoiy munosabatlar asosi bo`lgan davlatning barqarorligi va mavjudligini ta`minlaydi.

SHu bois, asosiy me`yoriy-huquqiy hujjatlarda iqtisodiy havfsizlik deganda iqtisodning shahsning kamoloti va munosib turmush darajasini, jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy barqarorligini ta`minlaydigan, ichki va tashqi havflarga qarshi tura oladigan imkoniyatlari va tayyorligi nazarda tutiladi. Bunday talqinda «iqtisodiy havfsizlik» tushunchasi iqtisodiydan ko`ra ko`proq siyosiy mazmun kasb etadi.

Ayni paytda iqtisodiy havfsizlikni ta`minlash yo`nalishlari bo`yicha kontseptual qoidalarni aks ettirgan asosiy hujjat mavjud: bu O`zbekiston Respublikasi milliy havfsizligi kontseptsiyasi. Biroq himoyalanganlik holatining boshqa turlaridan farqli o`laroq, iqtisodiy havfsizlik milliy havfsizlikning muhim turi sifatida tub nazariy shaklda ifodalanmagan va rasman qabul qilingan, zamonaviy shart-sharoitga mos ta`rifga, amalda qo`llanadigan, ilmiy asoslangan mazmunga ega emas.

O`zbekiston iqtisodiy havfsizligini ta`minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy masalalarini tadqiq etar ekanmiz, hozirgi sharoitda iqtisodiy havfsizlikka nisbatan sezilarli tahdidlar ho`jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyatiga yagona huquqiy yondashuvning, mulkiy nizolar bo`yicha sud amaliyotida birhillikning yo`qligiga amin bo`lamiz.

YUqorida qayd etilgan iqtisodiy havfsizlikning yagona tizimi shakllanishi va rivojiga halal berayotgan muammolarga to`htalib, shuni ta`kidlash joizki, iqtisodiy havfsizlik murakkab o`zgaruvchan tizim bo`lib, unda butun O`zbekiston taraqqiyotini belgilovchi tub asos ko`rsatkichlar mavjud bo`ladi.

SHunday qilib, iqtisodiy havfsizlikni ta`minlashning amaldagi modeli huquqiy institutlarni, jumladan, konstitutsiyaviy-huquqiy institutni ham ichki va tashqi tahdidlarga yanada qat`iy qarshi turish maqsadida takomillashtirishni, butun huquqni himoya qilish tizimini mumkin qadar qayta qurishni talab etadi.

Mamlakat havfsizligini nazariy va amaliy planda ijtimoiy munosabatlar holati sifatida umumiyl tushunish butun davlat munosabatlari tizimidan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy-tehnikaviy, ijtimoiy, ekologik va boshqa havfsizliklarni ajratib qarashni taqozo etadi. Zero, ular milliy havfsizlik yoki mamlakat havfsizligi tushunchasini shakllantiradigan turlar sifatida keladi. Davlat yagona ijtimoiy organizm sifatida yahlit tizimning qismlaridan (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy va hokazo) tarkib topgan bo`lib, har birining ichida moddiy va ma`naviy qadriyatlar qarama-qarshiligi paydo bo`ladi va rivojlanadi. Ular nafaqat munosabatlar sohasining o`zi balki butun mamlakat havfsizligi uchun tahdid manbalarini shakllantiradi. Bu jarayonlarni kuzatib borish, samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo`lish uchun havfsizlik sohasidagi barcha munosabatlarni o`zining tavsifi, rivojlanish qonuniyatiga ega bo`lgan, tizimli, amaliy tahlilga tushadigan tarzda guruhlarga tasniflash zarur bo`ladi. SHu bois, havfsizlikning asosi muvozanatni, tenglikni saqlashdirki, ular mamlakatning bugungi holatiga, barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlariiga mos bo`lishi lozim.

O`zbekistonda shakllanayotgan iqtisodiy havfsizlikni ta`minlash tizimi turli yo`nalishdagи ijtimoiy strukturalar (ahborot-tahliliy, ilmiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy va hokazo) bilan yaqin hamkorlikdagi davlat organlarining yagona majmui sifatida faoliyat yuritadi. Bu tizim quyidagi vazifalarni bajaradi:

— birinchidan, O'zbekiston iqtisodiy havfsizligining umummilliy manfaatlariga tahdidlarni vaqtida, tezkorlik bilan ochish, prognoz qilish va ular haqida mamlakat rahbariyatini hamda manfaatdor organlarni habardor etish. Bunday tahdidlar sirasiga inqirozli va boshqa nohush tendentsiyalar, siyosiy, ijtimoiy, tehnogen, energetik va ekologik harakterdagi jarayonlar, shuningdek, jamiyat uchun havf tug'diradigan ichki va tashqi tajovuzlar kiradi;

— ikkinchidan, zarur qonunchilik, ma'muriy, iqtisodiy, informatsion choralarni qo'llab, mamlakat iqtisodiy havfsizligiga tahdid soladigan yashirin va real hatarlarning oldini olish, tarqalishini cheklash yoki zararsizlantirish;

— uchinchidan, mamlakat havfsizligiga tahdidlarga va ularning manbalariga qarshi bevosita tezkor-qidiruv, jinoiy-protsessual, qutqaruv, tehnik-tashkiliy choralarni ko'rish orqali kurashish.

Demak, mamlakat taraqqiyotining turli bosqichlarida iqtisodiy havfsizlikning muayyan turi havfsizlikning umumiy tizimida etakchi bo'lishi lozim. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, bu etakchilik boshqa turdag'i tahidlarning paydo bo'lishiga olib keladi. SHuning uchun iqtisodiy havfsizlikni uning konkret ko'rinishida va konkret ijtimoiy munosabatlar uchun tanlangan etakchi yo'nalishda ta'minlash rejasini ishlab chiqish va qo'llashda aynan turli omillar muvozanati asos bo'lishi kerak. Zero, hozirgi sharoitda iqtisodiyot sohasidagi barqarorlik jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga, davlat institutlari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

YUqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mamlakat iqtisodiy havfsizligi strategik, nazariy kategoriyadir deyish mumkin. Demak, iqtisodiy havfsizlikni ta'minlashning mazmunini, umumiy mehanizmini, ustuvorligi va asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi qonun qabul qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Demografik xavfsizlik

O'rta Osiyo respublikalari –O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va qirg'iziston mustaqillikka erishganlaridan so'ng o'z oldilarida turgan muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etmoqdalar. Jumladan, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash, uni bozor munosabatlariga o'tish davri talablariga muvofiqlashtirish, mavjud tabiiy, sotsial-iqtisodiy va boshqa imkoniyatlardan to'la va samarali foydalanish, mamlakatning geosiyosiy mavqeini yanadi takomillashtirish masalalari katta ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, aholi muammolarini ijobiy hal etish, uning yashash sharoitini tubdan yahshilash, sifat ko'rsatkichlariga e'tibor berish ayniqsa dolzarbdir. Odatda, tabiat bilan jamiyat taraqqiyoti o'rtasida muayyan darajadagi mutanosiblik kerakligidek, aholi va iqtisodiyot rivojlanishi ham bir-biriga muvofiqlashuvi lozim. SHu ma'noda, iqtisodiyot, moddiy ishlab chiqarish jabhalari aholi (nufus) sonining o'sishiga nisbatan ancha ildamroq, ustuvorroq rivojlanmoqi kerak.

O'z navbatida iqtisodiyotning bunday bo'lishiga aholining o'sib borayotgan talab va ehtiyojlari, «sotsial buyurtmalar» ham sabab bo'ladi. Zero, faqat mustahkam iqtisodiyot negizidagina halq farovonligi, uning moddiy va ma'naviy hayoti, turmush sharoiti yildan-yilga yahshilanib boradi, aholining noz-ne'matlarga bo'lgan talabi to'laroq qondiriladi. Umuman olganda, demografik va iqtisodiy taraqqiyot masalasi, ularning mushtarak birligini shakllantirish va uyg'unlashtirish dunyoning barcha mamlakatlari uchun hos va ular ushbu muammoni echishga turlicha yondashadilar. Bu hususda asosan ikki yo'l bo'lib, u ham bo'lsa

iqtisodiyot rivojini aholi o'sishiga moslashtirish va aksincha, aholi sonini mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda hamda ushbu masalani davlatning rasmiy demografik siyosati asosida tartibga solish va uning o'sishini chegaralashdan iboratdir. Albatta, bu ikki yo'nalishni qat'iy ravishda bir-biriga muqobil qo'yish hato, chunki har qanday sharoitda ham demopentrik printsip ustun turadi. Binobarin, amalda ko'proq bиринчи yo`nalish qo`llanilmoqda va bu shubhasiz, mantiqan to`g'ridir. Sababi, iqtisodiyot, moddiy borliq, milliy daromad aholi soni o'sishiga nisbatan tahminan 3-4 marta tezroq yoki ko'proq o'smog'i lozim.

SHu bilan birga ba'zi davlatlar iqtisodiy tanglik, ekologik vaziyatning nochorligi va boshqa sharoitlar tufayli aholi soni o'sishini pasaytirishga (to'htatishga) mo'ljallangan demografik siyosatni o'tkazmoqdalar. Ayni paytda iqtisodiyotni rivojlanadirish maqsadida aholi sonining kamayishini to'htatish va uning barqaror o'sishini rag'batlantirishga moyil yoki intiluvchi davlatlar

ham

yo`q

emas.

Yana shuni qayd etmoq joizki, ayrim mintaqaga va mamlakatlarda ekologik muhit va ijtimoiy hayotning yomonlashuvi oqibatida aholining «aylanma harakati» (oboroti) ko'paymoqda – yuqori darajadagi tug'ilish ko'rsatkichlari ayni vaqtida, afsuski, huddi shunay yuqori miqdordagi o'lim, va ayniqsa, ko'proq bolalarning nobud bo'lishi bilan sodir bo'lmoqda. Bu nohush holat, albatta, iqtisodiy va ijtimoiy (ma'naviyat, tarbiyaviy) jihatdan ham maqbul emas. Zero, bunday sharoitda aholining o'rtacha yashash umri qisqaradi, uning sifat ko'rsatkichlariga, naslu-nasabi, sog'lom avlodni etishtirishga katta zarar etkaziladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo davlatlarining aholisi nisbatan jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Masalan, mintaqaga aholisi 1865-1999 yillar mobaynida 8 marta oshdi: 1865 yilda bu erda tahminan 5,2 mln. kishi yashagan edi, hozirgi kunda esa bu raqam 40 mln. atrofida (2000 yil boshida). SHu yillar davomida O'zbekiston aholisi 8,5-9 barobar ko'paydi; qolgan qo'shni davlatlarda ham u tahminan shu miqyosda oshdi. Agar 1865 yilga nisbatan qaralsa, region aholisi 1938-1939 yilarga kelib 2 barobar ko'paydi. Demak, buning uchun tahminan 75 yil talab etildi. Keyingi yillarda esa aholisining ko'payishi ancha jadallahadi-1970 yilga kelib aholi soni yana hissaga oshdi va 20 mln. kishini tashkil etdi. Boshqacha qilib aytganda, aholi sonining bunday ko'payish davri deyarli 2 martaga qisqardi va atigi 32-33 yilga teng bo'ldi, holos. Aytish mumkinki, asrimizning ohiriga kelib mintaqaga aholisi 1970 yilga nisbatan yana ikki hissa ko'paydi, ya'ni 30 yil davomida uning soni 40 mln-dan oshib ketdi. Sobiq SSSRning aholisi eng avvalo O'rta Osiyo respublikalari hisobidan ko'payib borardi: mamlakat yillik o'rtacha aholi sonining ko'payishining tahminan 35 foizi O'rta Osiyoga, shundan 20 foizi O'zbekistonga to'g'ri kelardi. Binobarin, o'sha yillarda mintaqada o'ziga hos demografik vaziyat vujudga kelgan edi.

Aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati ham yuqorilashib bordi. CHunonchi, bu raqam 1926-1939 yillarda 2,55 (SSSR-2,00), 1939-1959 yy.-1,30 (0,50), 1950-1970 yy. 3,45(1,35) va 1070-1989 yy.-2,70 (0,90) foizni tashkil etadi. To'g'ri, eng so'nggi yillarda bu erda ham demografik rivojlanish jarayoni susaydi-hozirgi paytda ko'rileyotgan ko'rsatkich 2,0 foizdan oshmaydi (masalan, O'zbekiston aholisi 1999 yilda 351 ming kishiga yoki 1,4 foizga ko'paydi). Buning sababi turlicha: aholining tashqi migratsiyasi kuchaydi, tug'ilish biroz pasaydi, o'lim va ayniqsa bolalar o'limi ancha yuqori. Mintaqaga aholisi asosan tabiiy ko'payish negizida o'sib bormoqda. Tabiiy ko'payish esa bu erda an'anaviy ravishda yuqori va yillar davomida uning pasayishi asta-sekin amalgalashmoqda. 1998 yilda tug'ilishning umumiy koeffitsienti (har 1000 aholiga nisbatan) qirg'iziston va Turkmanistonda 22, Tojikistonda 25 kishi, o'lim, yuqoridagilarga mos ravishda 7 va 6 kishini tashkil qiladi. Bolalar o'limi Tojikistonda 25, qirg'isitonda 26, Turkmanistonda 38 promilledan iborat. O'zbekistonda huddi shu yili tug'ilish 23,0, o'lim 5,8 va bolalar o'limi 21,8 promillega teng bo'ldi. SHu bilan birga mintaqaning demografik rivojlanishida aholi migratsiyasining rolinini ham

inkor etib bo`lmaydi, albata. Bu erga chetdan (hususan Rossiya rayonlaridan) aholining ko`chib kelishi XIX asrning so`nggi choragida, ikkinchi jahon urushi yillarda ancha avj olgan edi. 80 nchi yillar ohiri va 90-yillarning birinchi yarmida esa aks vaziyat yuzaga keldi- O`rta Osiyodan «kelgindi» aholining qayta ko`chib ketishi ko`paydi. Agar dastlabki yilarda g`ayri mahalliy milatlar ko`proq uzoq horijga (AqSH, Isroil va boshqalar) ko`chib ketgan bo`lsa, keyinchalik emigratsiya jarayoni «yaqin horij», ya`ni sobiq ittifoqdosh respublikalarini va birinchi navbatda Rossiya, Ukraina davlatlarini ham qamrab oldi. Misol tariqasida, quyidagi raqamlarni keltirish o`rinli: O`zbekiston Respublikasidan 1980 yilda «uzoq horijga», ya`ni sobiq SSSR hududidan tashqariga 900 kishi ko`chib ketgan bo`lsa, 1998 yilda tashqi migratsiya 3580 kishini, 1989 yilda-10100 va 1990 yilda 41934 kishini tashkil etdi. qирг`истонда ушбу рақамлар ўюқоридаги ўйларга мөсравишда 957, 10618, 16757 ва 18035 кишига, Тоҷикистонда 905, 10463 ва 12468 кишига тенг. Faqat Turkmanistonda emmigratsiya jarayoni sustroq. Bu erdan 1980 yilda atigi 25 kishi, 1988 yilda -56, 1989 yilda -57, 1990 yilda -302 kishi ko`chib ketdi, holos.

90-yillarda tashqi migratsiya yanada kuchaydi. Misol, birgina O`zbekistonda aholi almashuvining natijasi, ya`ni sal`do migratsiya (migratsiya qoldig`i) 1997 yilda 48,4 va 1998 yilda 50 ming kishini tashkil qildi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ko`rsatkichlaridan biri aholining o`rtacha umr ko`rishidir. Mazkur holat O`zbekistonda erkaklar uchun 66, ayollar uchun esa 72 yilga barobar; qирг`изистонда у 63 ва 71, Тоҷикистонда 66 ва 71, Туркманистонда 62 ва 69 yilni tashkil qiladi. («Naselenie i obhestvo» ahborotnomasi № 38 avgust, 1999). Keyingi yillarda O`zbekistonda ayniqsa sanoat ishlab chiqarishi jadal rivojlanmoqda. Masalan, chop etilgan ma`lumotlarga qaraganda, respublika bu borada 1999 yilda MDH mamlakatlari orasida birinchi o`ringa chiqib oldi; bu erda sanoat mahsulotlari 1991 yilga nisbatan 117 foizga o`sdi. Hamma narsa taqqoslashda, qiyoslashda ravshanlashadi, deyishadi. SHu nuqtai nazardan yondoshsak, bu ko`rsatkich Rossiyada 53, Ukrainada 51 va qozog`istonda 48 foizga tengligini guvohi bo`lamiz. Raqamlar o`z-o`zicha vaziyatni real ko`rsatmoqda va ularni ortiqcha tahlil qilishga zaruriyat bo`lmasa kerak.

Ekologik xavfsizlik. Mustaqil O`zbekiston Respublikasining rivojlanish sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zamonaviy dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bizning davlatimiz uchun milliy xavfsizlik masalalari ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari bilan bevosita bog`liq ekanligini I.A.Karimov o`zining «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida chuqur tahlil qilib o`tgani. Tabiatni muhofaza qilish, odam faoliyatining tabiatga salbiy ta`sirini ogohlantirish, binobarin, qonunshunoslik, tashkiliy, sanitari-gigienik, muhandis-texnik va boshqa biologik sistemalarga antropogen ta`sirni kamaytirish yoki ogohlantirish tadbirlari tuzishdan iborat.

Mavjud sharoit tanlangan yangilanish yo`lining oddiy emasligini, katta muammolar, qiyinchiliklar yo`li ekanligini ko`rsatadi. O`zbekistonda yashab turgan barcha xalqlarning hayotiy sharoitlarini ta`minlashga qaratilgan maqsad va vazifalar qanday hal etiladiq. Va eng dolzarb qiyin masalalardan biri bo`lgan barqarorlik va xavfsizligimizga bo`lgan taxididni etarlicha tushunib etayapmizmiq. Bu tahdidlarga qarshi nima qo`ya olamiz, jamiyatimizning izchil rivojlanishi va barqarorlik sharti bo`lib nima xizmat qila oladiq

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahidlarni ko`rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma`muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug`ullanilmagan. Aniqrog`i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o`z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib

qolishiga befarq qaramagan, bu xaqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa «qalb nidosi» bo`lib kelgan.

Biroq, ularning vijdoniga, fuqarolik burchiga, nixoyat, aql-idrokiga da`vatlari to`ralashib ketgan sovet-partiya amaldorlarining sovuq, hatto aytish mumkinki, surbetlarcha loqaydligiga duch kelavergan. Bunga ajablanmasa ham bo`laveradi. Tabiiy va mineral xomashyo zaxiralaridan vaxshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchilik bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo`jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo`lish g`oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eksport imkoniyatlarining negizi bo`lib keldi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad ekstensiv omillarga qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga soladigan, tabiatning, atrof-muhitning himoya qilinishini kafolatlaydigan biron-bir me`yorlar va qoidalarga rioya qilish haqida gap bo`lishi mumkin ham emas edi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag` ajratilar edi.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo`l qovushtirib o`tirish o`z-o`zini o`limga maxkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko`plar ushbu muammoga beparvolik va mas`uliyatsizlik bilan munosabatda bo`lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylangan. Tabiat va inson o`zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo`ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o`nglab bo`lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Afsuski, bu jarayonlar O`zbekistonni ham chetlab o`tmaydi. Bu erda mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimalardan iborat:

Birinchidan, ernening cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog`liq xavf to`xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitidayer Olloho taoloning bebafo in`omidir. U tom ma`noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog`langan oilalardagina emas, balki ma`lum bir tarzda qishloq xo`jaligi bilan aloqador barcha tarmoqlar va uning ne`matlaridan baxramand bo`layotgan farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtdayerulkan boylik bo`libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O`zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo`lmokda, chunki ernening iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Respublikaning 447,4 ming km² dan ortiq bo`lgan umumiyligi maydonining atigi 10% gina ekin maydonlarini tashkil qiladi. Ayni chog`da O`zbekistonni egallab turgan maydonining ancha qismini qoraqum, qizilqum, Ustyurt kabi cho`l va yarim cho`l erlar tashkil etadi. Ayniqsa, qishloq xo`jalik maqsadlarida foydalaniyatganyermaydonlariga to`g`ri keladigan demografik yuk hozirning o`zidayoq salmoqli. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O`zbekistonda aholining zichligi ayniqsa yuqori bo`lib, 1 km² ga 51,4 kishi to`g`ri keladi, holbuki bu raqam Qozog`istonda - 6,1, Qirg`izistonda - 9,4 ni tashkil etadi. Respublikamizda har bir odamga 0,17 hektar ekin maydoni to`g`ri kelsa, Qozog`istonda - 1,54, Qirg`izistonda - 0,26, Ukrainada - 0,59, Rossiyada - 0,67 hektar ekin maydoni to`g`ri keladi. Barcha aholining yarmidan ko`prog`i qishloq joylarida yashayotganligini hisobga olsak, dadil aytish mumkinki, bizning qishloqlarimizda insoniy zaxiralarning nisbiy ortiqligi emas, balki mutloq ortiqligi yaqqol ko`zga tashlanadi.

Bizda aholining o`sishi nisbatan yuqori bo`lib, urbanizatsiya va hosildor erlarni shaharlarning rivojlanishiga, uy-joy qurilishi, yangi korxonalar, muhandislik hamda transport kommunikatsiyalari tarmog`ini barpo etishga ajratib berish jarayonlari jadal bormoqda. SHuni

hisobga olsak, yaqin yillar ichida, hatto XXI - asrdayerzaxiralari bilan ta'minlanish muammosi yanada keskinlashishi mumkin.

Erlarning tabiiy ravishda cho'lga aylanishi yuqori darajada borayotganligi etmaganidek, odamlarning munosabati tufayli cho'lga aylanib borish jarayoni shiddat bilan davom etayotganligi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Ayni chog'da tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga, tuproq nurashi, sho'rlanishi, yerosti vayerusti suvlarining sathi pasayishi va boshqa hodisalar ro'y bermoqda.

Erlarning nihoyat darajada sho'rlanganligi O'zbekiston uchun ulkan ekologik muammodir. Erlarni ommaviy suratda o'zlashtirish, xatto sho'rlangan va melioratsiyaga yaroqsiz yirik-yirik, yaxlit maydonlarni ishga solinishi ana shunga olib keldi. So'nggi 50 yil mobaynida sug'oriladiganyermaydoni 2,46 mln. gektardan 4,28 mln gektarga etgan. Faqat 1975-1985 yillar mobaynida 1 mln. gektarga yaqin ermaydonlari o'zlashtirilgan. 1990 yilga kelib sug'oriladiganyermaydoni 1985 yildagiga qaraganda 1,5 barobar ko'paygan.

Ekin maydonlari tarkibida so'nggi vaqtarga (1990 yilga) qadar paxta deyarli 75% maydonni egallagan edi. Dunyoning birorta ham mamlakatida paxta monopoliyasi deyarli bu qadar yuqori darajaga ko'tarilmagandi. Bu hol arning kuchsizlanishiga, tuproq unumdorligi pasayishiga, uning suv-fizikaviy xossalari yomonlashuviga, tuproqning buzilishi va nurlanish jarayonlari ortishiga olib keladi.

O'zbekistonda noorganik mineral o'g'itlar, gerbetsidlar va pestitsidlar qo'llanilishi eng yuqori me'yordan ham o'nlab barobar ortiq edi. Ular tuproqni, daryo, ko'l, yerosti va ichimlik suvlarni ifloslantirdi. Bundan tashqari, yangi erlardan foydalanishda zarur texnologiyalarga rioya qilinmadi. Hamma joyda paxta nazoratsiz sug'orildi. Tuproqning nami ko'payib ketdi. Bu esa uning qayta sho'rlanishiga olib keldi.

Tuproqning har xil sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan shiddatli ifloslanishi real taxdid tug'dirmoqda. Turli kimyoiy vositalar, zararli moddalar va mineral o'g'itlar, sanoat va qurilish materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish qoidalarining qo'pol ravishda buzilishi arning ifloslanishiga olib kelmoqda. Undan samarali foydalanish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Foydali qazilmalarni jadal qazib olish, ko'pincha ularni qayta ishlashning texnologik sxemalari nomukammalligi ko'p miqdorda ag'darmalar, kul, shlak va boshqa moddalar to'planib qolishiga olib kelmoqda. Bular dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan erlarni egallabgina qolmay, balki tuproqni, yerosti vayerusti suvlarini, atmosfera havosini ifloslantirish manbalariga ham aylanmoqda. Respublika zararli chiqindilardan foydalanish sanoati esa hozircha yaratilgan emas.

O'zbekiston hududida qattiq maishiy chiqindilar tashlanadigan 230 dan ortiq shahar va qishloq axlatxonalari mavjud. Ularga taxminan 30 mln. m³ axlat to'planadi. Ular asosan stixiyali ravishda, jo'g'rofiy, geologik-gidrogeologik va boshqa shart-sharoitlarni kompleks o'rghanmay turib tashkil etilgan. Ularga qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish va ko'mib tashlash ibtidoiy usullar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, respublikaning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni ishlatish va zararsizlantirish sohasida murakkab vaziyat vujudga kelgan. Respublikada hali-hanuz maishiy chiqindilarni sanoat usulida qayta ishlash masalasi xal qilinmagan. Yagona Toshkent maishiy chiqindilar tajriba zavodi 1991 yildagina ishlay boshladi.

Radioaktiv ifloslanish, ayniqsa katta xavf tug'dirmoqda. Maylisoy suv (Qirg'iziston) omborining qirqoqlari yoqasida 1944 yildan boshlab to 1964 yilgacha uran rudasini qayta ishlash chiqindilari ko'milgan. Hozirgi vaqtida qoldiqlar saqlanadigan 23 ta joy mavjud. Bu erlarda selni to'sadigan to'g'onlarni mahkamlash hamda ko'chki xavfi bo'lgan joylardagi qiyaliklarning mustahkamligini ta'minlash lozim.

Navoiy viloyatidagi saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan xavfli ifloslantirish o'chog'i hisoblanadi. Bu erdag'i radioaktiv qumni shamol uchirish xavfi bor.

Shu sababli O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi g'oyat muhim vazifa erlearning holatini yaxshilashdan, tuproqning ifloslanishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirishdan iborat. Bu o'rinda gap avvalo tabiiy zaxiralardan foydalanishni tubdan yaxshilash haqida bormoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtayi nazaridan qaraganda, suv zaxiralarining, shu jumladanyerusti vayerosti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va xattoyerosti suvlar ham har taraflama inson faoliyati ta'siriga uchramoqda.

Sug'oriladigan hududlarda suv tabiatning bebafo in'omidir. Butun hayot suv bilan bog'liq. Zotan, suv tamom bo'lgan joyda hayot ham tugaydi. SHunday bo'lsa-da, Markaziy Osiyo suv zaxiralarini juda cheklangan. Yiliga 78 km³ suv keltiradigan Amudaryo va 36 km³ suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbaalaridir. Hozirgi vaqtida xalq xo'jaligida Orol dengizi havzasining barcha suv zaxiralaridan to'la-to'kis foydalanilmoqda.

Suv zaxiralarining sifati eng muhim muammolardan biridir. 60-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi erlar keng ko'lamma o'zlashtirildi. Sanoat, chovchilik komplekslari ekstensiv rivojlantirildi. Urbanizatsiya kuchaydi. Kollektor zovur tizimlari qurildi hamda daryo suvlarini sug'orish uchun mutlassil yuqori hajmlarda olindi. SHu bois havzalardagi suvning sifati tobora yomonlasha bordi.

Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya-gigiyena va sanitariya-epidemiologiya vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimlarida yomonlashtirmoqda. Ikkinci tomonidan, daryo suvlarini tarkibida tuzlarning mavjudligi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning deltalarida tuproqning sho'rlanishini kuchaytirmoqda. Bu esa qo'shimcha melioratsiya ishlarini amalga oshirishda, zovur tizimlarini barpo etish va tuproq, sho'ri ni yuvishda yaqqol sezilmoqda.

O'zbekiston va qo'shni mintaqalar sharoitida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi punktlarini odatdag'i vodoprovod suvi bilan ta'minlash ko'rsatkichi respublikada faqat keyingi besh yillikning o'zida taxminan 1,5 barobar ortdi. SHunga qaramay, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Ichimlik suv ta'minoti manbaalarining ifloslanishi Respublikada, Orol bo'yicha kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo'lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq, o'tmishtga borib taqaladi. Lekin bu muammo so'nggi o'n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamiagi fojia - Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi.

Yaqin-yaqinlargacha cho'lu-saxrolardan tortib olingan va sug'orilgan erlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Oroldan tortib olinganligi, uni «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi, endilikda Orol bo'yici ekologik kulfat hududiga aylandi.

Orol tangligi insoniyat tarihida eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 mln. kishi uning ta'sirida qoldi. Biz 20-25 yil mobaynida Jahondagi eng yirik yopiq suv havzalaridan birining yo'qolib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biroq, bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz halok bo'lgan hol hali ro'y bergen emas edi. 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 m ni, suvning hajmi 1064 km³ ni, suvning yuzasi 66 ming km² ni va minerallashuv darajasi bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan edi. Dengiz transport, baliq xo'jaligi, iqlim sharoiti jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 km³ suv kelib quyilar edi.

1994 yilga kelib Orol dengizidagi suvning satxi 32,5 metrga, suv hajmi 400 km³ dan kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 32,5 km² ga tushib qoldi, suvning minerallashuvi ikki baravar ortdi.

Orolning sathi 20 metr pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki ikkita qoldiq ko'lga aylanib qoldi. Uning sohillari 60-80 km ga chekindi. Amudaryo bilan Sirdaryoning deltalar jadal sur'atlar bilan buzilib bormoqda. Dengizning suv qochgan tubi 4 mln. getkardan ortiqroq maydonda ko'rinish qoldi. Natijada yana bitta «qo'l bola» qumli-sho'rhoq sahroga ega bo'ldiq. Shamol Orol dengizining qurib qolgan tubidan tuz va chang-tuzonni yuzlab km larga uchirib ketmoqda.

Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli orol bo'ydi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fofija sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo'ronlarining paydo bo'lishi, faqat Orol bo'yida emas, balki dengizdan ancha naridagi bepoyon hududlarda erlarning cho'lga aylanishi, iqlim landshaftning o'zgarishi bular ana shu fofija oqibatlarining to'liq bo'limgan ro'yxatidir.

Orol bo'yida dengizning qurib borishi munosabati bilan xalqaro, keng ko'lamli ahamiyatga molik bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi.

Orol dengizining qurib borishi va mintaqaning cho'lga aylanishi bilan bog'liq ekologik fofija bu havzada yashayotgan barcha xalqlarning dard alamidir.

Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining 1993 yil mart oyida qizil o'rdada bo'lib o'tgan uchrushuvi ana shu muammolarni xal qilish yo'lidagi turtki bo'ldi. Bu uchrashuvda Orol dengizi tangligini xal etish yuzasidan birgalikda harakat qilish to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi - Ijroiya qo'mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi. Markaziy Osiyo Respublikalari davlat boshliqlarining 1994 yil yanvarida Nukus shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvida Orol dengizi havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin uch-besh yilga mo'ljallangan, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi. 1994 yil mart oyida Toshxovuzda bo'lgan uchinchi uchrashuvda Davlatlararo Kengashning ushbu dasturining bajarilishi haqidagi hisoboti tinglandi.

Orol muammosining butun keskinligini uni saqlab qolish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish zarurligini tushungan holda, Markaziy Osiyo va mintaqaning ilmiy jamoatchiligi, xalqaro tashkilotlari 1995 yil 20 sentabrda Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarining Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammosi bo'yicha Deklaratsiyasini qabul qildilar. Deklaratsiya barqaror rivojlanish qoidalariga qat'iy amal qilishni nazarda tutadi va e'tiborni quyidagi g'oyat muhim muammolarni hal qilishga qaratadi:

-qishloq va o'rmon xo'jaligining yanada muvozanatli va ilmiy asoslangan tizimiga o'tish;

-suv zaxiralaridan foydalanishning tejamli usullarini ishlab chiqish, sug'orishda va atrof-muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni qo'llash vositasida irrigatsiyaning samaradorligini oshirish;

-mintaqaning tabiiy zaxiralarini boshqarish tizimini takomillashtirish.

Pirovard natijada Orol tangligi barqaror rivojlanish, bu mintaqada yashayotgan odamlarning turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, kelajakda yosh avlod uchun munosib turmushni ta'minlash tamoyillari asosida hal qilish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va dasturni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarish zarur.

To'rtinchidan, havo bo'shilig'ining ifloslanishi ham Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir.

Mutaxassislarining ma`lumotlariga qaraganda, har yili Respublikaning atmosfera havosiga 4 mln. tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda. SHularning yarmi uglerod oksidiga, 15 foizi uglevodorod chiqindilari, 14 foizi oltingugurt qo'sh oksidi, 9 foizi azot oksidi, 8 foizi qattiq moddalar va 4 foiziga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

Atmosferada uglerod yig`indisining ko`payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko`lamdag'i issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatdayerhavosining o`rtacha harorati ortib ketadi.

Arid mintaqasida joylashgan O'zbekiston Respublikasida tez-tez chang bo`ronlarini qo`zg`atib turuvchi, atmosferani chang-to`zonga bulg`atuvchi Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbaalar mavjud. So`ngi o'n yilliklar mobaynida Orol dengizining qurib borishi tufayli chang va tuz ko`chadigan yana bir tabiiy manba paydo bo`ldi.

80-yillarning boshlarida qo'shni Tojikiston alyuminiy zavodi ishga tushirilishi munosabati bilan O'zbekistoning Surxondaryo viloyatiga qarashli ko`plab tumanlarida ekologik jihatdan tang ahvol vujudga keldi. Zavod atmosferaga ko`p miqdorda fitorli vodorod, uglerod oksidi, oltingugurt gazi, azot oksidlari chiqarib tashlamoqda. Vodiyning yuqori qismida, Tojikistonning O'zbekiston bilan chegarasida joylashgan zavodning chiqindilari tog`dan vodiylar tomoniga esadigan shamol bilan undan uzoqlarga, asosan Respublikaning chegaradosh tumanlari - Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy tumanlari hududiga tarqalmoqda.

4 – mavzu. Jamiyat va shaxs, madaniyat va oziq-ovqat, ilmiy-texnik va axborot (informatsiya) xavfsizligi

Ishdan maqsad: Jamiyat va shaxs, madaniyat va oziq-ovqat, ilmiy-texnik va axborot (informatsiya) xavfsizligini o'rGANISH.

Jamiyat va shaxs xavfsizligi. Fukarolik jamiyatining rivojlanishi shahs manfaatlarining boshka barcha manfaatlardan ustivor darajada rivojlanishi bilan boglik. YA`ni bu «shahs - jamiyat - davlat» degan Konstitutsiyaviy printsipning Amaliy ifodasıdir. Bunday holat mazkur manfaatlarni konunlar shaklida ifoda etadigan va himoya kiladigan hukukiylar davlatsiz mavjud bulsa olmaydi. Mamlakatimiz mustakillikka erishgandan sung mulkchilik shakllari uzgarishi bilan, insonning iktisodiy va ijtimoiy hukuklari sohasida tub uzgarishlar yasaldi. Mulkka egalik hukuki, ishsizlikdan himoyalanish hukuki, mehnatning okilona shart-sharoitlariga ega bulish hukuki, madaniyat yutuklaridan foydalanish hukuki va boshkalar Konstitutsiyamizda ilk bor mustahkamlandi.

Konstitutsiyaning «Jamiyatning iktisodiy negizlari»ga bagishlangan XII bobining 53-moddasida bozor munosabatlariga asoslangan Uzbekiston iktisodiyoti negizini hilma-hil shakllardagi mulk tashkil etishi, iste`molchilar hukuklarining ustunligi, iktisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat kilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng hukulligi va hukukiylar jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi va kafolatlanishi tugrisida Konstitutsiyaviy norma belgilangan.

Avvalo Uzbekistonning davlat mustakilligi, iktisodiy mustakilligining hukukiylarini yaratish, davlatni boshkarish koidalari tartibga soluvchi konunlar kabul kilindi. Anna shu yunalish doirasida «Uzbekiston Respublikasi Davlat mustakilligining asoslari tugrisida»gi, «Er osti boyliklari tugrisida»gi, «Uzbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tugrisida»gi, «Mahalliy davlat hokimiyyati tugrisida»gi, «Fukarolarning uzini-uzi boshkarish organlari tugrisida»gi va boshqa tarihiy ahamiyatga ega bulgan konunlar muhim ahamiyatga ega. Mazkur konun hujjalaringi kabul kilinishi natijasida er,yerosti boyliklari,

tabiiy va mineral resurslar, yaratilgan ishlab chikarish kuvvati Uzbekiston halkining ajralmas mulki ekanligi tan olindi. Uzbekiston Respublikasi Davlat mustakilligining moddiy asosi uning mulkidir. Mulk turli shakllarda namoyon buladi. Mulk shakllari deb mulk sub`ektining belgilari buyicha tavsiflanishiga aytildi. Uzbekiston Respublikasining Fukarolik kodeksi hamda Uzbekiston Respublikasining «Uzbekiston Respublikasida mulkchilik tugrisida»gi konunning 4-moddasida Uzbekiston Respublikasida mulkning kuyidagi shakllarda bulishi ta'kidlangan:

-fukaroning shahsiy va hususiy mulki;
-jamoia (shirkat) mulki, shu jumladan oilaviy, mahalla, kooperativ mulklari, ijaraga olingen korhona mulki, aktsiyadorlar jamiyat, davlat korhonasi jamoasining, jamoat tashkilotlarining va diniy tashkilotlar, kontsern (konsortsium)larning mulki, turli hujalik birlashmalari va uyushmalari mulki, yuridik shahs hisoblangan boshka jamoalar mulki;
-Respublika, Korakalpogiston Respublikasi, ma'muriy-hududiy tuzilmalar (kommunal) mulkidan iborat bulgan davlat mulki;
-aralash mulk;
-kushma korhonalar, ajnabiy fukarolar, tashkilotlar va davlat, shuningdek ajnabiy yuridik shahslar mulki;

U turli mulk, ob`ektlarning mulk egasiga tegishliligini belgilaydi. Mulk ikki - ommaviy va hususiy kurinishlarga ega. Ommaviy mulk mulkiy oborotlar va munosabatlar ishtirokchilari bulgan davlat hamda munitsipial organlarning hukukiy holatini uz ichiga oladi. Fukarolarning hususiy mulki individning mulkka egalik kilishining hukukiy shaklini tavsiflaydi. Uzbekiston Respublikasida Konstitutsion tuzumning asosini kuyidagi ikki asosiy koda belgilaydi:

-hususiy mulk tan olinadi;
-barcha mulk shakllarining dahlsizligi bir hil himoya kilinadi.

Er,yerosti boyliklari, suv, usimlik va hayvonot dunyosi hamda boshka tabiiy zahiralar umummilliylar boylikdir, ulardan okilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Sharhanayotgan moddaning kuyidagi hususiyatlari uni har tomonlama kengrok tushinishga va tahlil kilishga yordam beradi:

a) mazkur moddaga asosan er,yerosti boyliklari, suv, usimlik va hayvonot dunyosi hamda boshka tabiiy zahiralar birinchi marta umummilliylar boylik deb kilinishi;
b) Ushbu moddaga asosan yukorida kursatilgan barcha tabiiy boyliklardan okilona foydalanish zarurligi;

v) barcha tabiat boyliklari va atrof-muhit muhofaza kilinishi;
g) mavjud tabiat boyliklari mustakil Uzbekiston Respublikasi, ya`ni davlat tomonidan muhofaza kilinishi zarurligi shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda respublikamizda 2500 dan ziyodyerosti boyliklari nuktalari mavjud. Respublikamiz MDH davlatlari ichida oltin kazib olish buyicha 2-urinda, kumush, gaz kazib olish buyicha 3-urinda turadi.

Mustakil Respublikamizda 142 ta neft', gaz, 6 ta kumir, 34 ta asl metall, 7 ta kora metall, 54 ta rangli metall, 49 ta tog-kon, 19 ta tsement ishlab chikarish, 37 ta tog kimyoviy, 372 ta kurilish materiallari korhonalar, 172 tayerosti suvlari boyliklari mavjud.

3. «Jamoat birlashmalari» tushunchasiga siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar, hotin-kizlar tashkilotlari va turli hildagi milliy vatanparvarlik harakatlari kiradi. Hozirda jamoat birlashmalarini soni 220 dan ortik. Jamoat birlashmalari - bu halkning mustakil faoliyatining namoyon bulishi, jamiyat hayotida ishtirok etishdir. Demak, ular demokratiya, hukukiy davlatning tarkibiy kismi va fukarolik jamiyatining mavjud bulish shakli sifatida ruyobga chikadi.

Jamoat birlashmasi kamida 10 nafar fukaroning tashabbusi bilan tuziladi. Bu tashabbuskorlar konferentsiya yoki umumiyligilish chakirib, unda Nizom kabul kilinadi va rahbar idoralari

tuziladi. Uzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining kuyidagi turlari mavjud:

1)	Halkaro	jamoat	birlashmalari.		
2)	Respublika	jamoat	birlashmalari.		
3)	Mahalliy	jamoat	birlashmalari.		
4)	Viloyat	mikyosidagi	jamoat	birlashmalari.	
5)	Toshkent	shahar	mikyosidagi	jamoat	birlashmalari.
6)	Tuman	mikyosidagi	jamoat	birlashmalari.	
7)	SHaharcha,	kishlok	mikyosidagi	jamoat	birlashmalari.
8)	Viloyatlararo	va	tumanlararo	jamoat	birlashmalari.

Jamoat birlashmalari birlashma sifatida e'tirof etilishi uchun ruyhatga olinishi shart (adliya vazirligi va joylardagi boshkarmalar tomonidan).

Jamoat birlashmalarining faoliyat kursatishiga kuyidagi holatlarda yul kuyilmaydi: ahlokodob koidalari buzilishiga olib kelsa; nokonuniy maksad bilan Konstitutsiyaviy tuzimni uzgartirishga intilsa; respublika hududi va birligini bulib tashlashga; Korakalpagiston Respublikasi va Uzbekiston Respublikasi urtasidagi alokalarni buzish uchun tashvikot olib borsa; zurlik, vahshiylik, ijtimoiy kelishmovchiliklarni tashkillashtirish uchun tashvikotlar olib borsa; turli millatlar urtasida bir millatni yukori kuyish evaziga kelishmovchilik keltirib chikarsa va jamiyatni bulib tashlash uchun dinka Karshi tashvikot olib borsa, konun buyicha harbiylashtirilgan birlashmalarni tashkil kilish hamda diniy partiya harakteridagi jamoatlarni tuzish kat'yan ma'n kilinadi.

Yangi tahrirdagi «Uzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari hakida»gi konun 1992 yil 3 iyulda kabul kilingan.

3. Uzbekistonda 25 mlndan ortik aholii yashaydi. Ayni mahalda 4 mln 800 mingga yakin oila bulib, har yili 540-550 ming bola tugilmokda. Aholining urtacha yoshi 70. Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh.

Mamlakatimizda 5 mlndan ortik tugish yoshidagi ayollar mavjud. Yiliga urta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmokda. Konstitutsianing uchinchi bulim 14 bobi «Oila» deb nomlanib, unga 4 modda 63-66 moddalar bagishlangan. Davlatning oila tugrisidagi gamhurligi kata hajmda uy-joy kurilishi, bolalar muassasalarining keng shahobchalarini barpo etish va rivojlantirish, maishiy hizmat, bola tugilganda nafaka tulash, kup bolali onalarga nafakalar va imtiyozlar berish, shuningdek, oilaga nafaka va yordam berishning boshka turlarini rivojlantirish orkali namayon bulmokda. Oilani himoya kilishning Konstitutsiyaviy koidalari deganda, davlat organlarining onalik va bolalikni muhofaza kilish, oilani mustahkamlash, oila a'zolarining konuniy hukuk va manfaatlarini himoya kilish, oilaviy munosabatlarga mas'uliyatsizlik bilan karashga Karshi kurashish tushuniladi. Bu tadbirlar iktisodiy, ma'naviy va hukuki vositalar yordamida bajariladi. Ota-onalar va bolalar urtasidagi hukukiy munosabatlar Konstitutsianing kuyidagi moddalarida aks etgan: 64- modda. Ota - onalar uz farzandlarini voyaga etgunlariga kadar bokish va tarbiyalashga majburdir.

Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bulgan bolalarni bokish, tarbiyalash va ukitishni ta'minlaydi, bolalarga bagishlangan hayriya faoliyatlarini ragbatlantiradi.

65- moda. Farzandlar ota-onalarining nasl nasabidan va fukarolik holatidan kat'iy nazar, konun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza kilinadi.

66-modda. Voyaga etgan, mehnatga layokatli farzandlar uz ota-onalari hakida gamhurlik kilishga majburdirlar.

Konstitutsiyadan kelib chikib, Uzbekiston Respublikada Oliy Majlis tomonidan 1998 yili «Oila kodeksi» kabul kilindi. Ushbu kodeks 8 bulim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

4. Ushbu bob, shaklan kiska, ammo mazmunan chukur bulgan bitagina moddadan iborat. U

Konstitutsiyaning chukur demokratik hususiyatini namayon etadi. Respublikamiz ilgarigi Konstitutsiyalarining hech birida bunday moda bulmagan. Bu esa matbuot, radio, televiedenie erkinligi, oshkoraliq, chop etilgan va junatilgan ahborotning hamma uchun foydalanish mumkinligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir kursatgan. Rasman e'lon kilingan erkinliklar juda kattik tenzura tufayli yukka chikarilgan edi.

Yangi Konstitutsiya paydo bulmasidan avval 1992 yil 14 iyulda respublikamiz Oliy Kengashi sessiyasida ommaviy ahborot vositalari tugrisida konun kabul kilingan bulib, unda «ommaviy ahborot vositalari» tushunchasi, ularning hukuk va erkinliklari, har bir fukaroga berilgan suz erkinligi, matbuot, radio, televiedenie va boshka ommaviy ahborot vositalari orkali chikish, uz fikrini va etikodini oshkora etish hukuki kafolatlangan edi. OAVni tashkil etish va tarkatishning konunda belgilangan printsiplari, ularning fukarolar va tashkilotlar bilan munosabati, jurnalislarning hukuk va burchlariga oid, ommaviy ahborot vositalari tugrisidagi konunchilik talablarini buzganligi uchun javobgarlik masalalari utgan davr maboynda sinovdan utdi hamda uzining hayotiyligi va zarurligini kursatdi. Ana shu bois ham ommaviy ahborot vositalarining makom va faoliyat printsiplari Konstitutsiyada yangi, yanada yukori darajaga ega buldi.

OAVning respublikamiz Konstitutsiyasida e'lon kilingan asosiy printsiplarni inobatga olgan holda faoliyat kursatish muammosi Uzbekiston Respublikasining «Noshirlik faoliyati tugrisida»gi (1996 y. avgust), «Mualliflik hukuki va aralash hukuklar tugrisida»gi (1996 y. sentyabr'), «Ahborot olish kafolatlari va erkinligi tugrisida»gi (1997 y. aprel'), «Jurnalistik faoliyatitni himoya kilish tugrisida»gi (1997 y. aprel'), «Ommaviy ahborot vositalari tugrisida»gi (1997 y. dekabr') konunlarda, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Televiedenie va radio eshittirishni Uzbekistonning ijtimoiy rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirish choralarini tugrisida»gi (1996 y. may) farmonida hamda bir kator normativ hujjatlarda uz ifodasini topdi.

Madaniyat xavfsizligi. **Madaniyat** — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlarini tarixiy taraqqiyotining muayyan darjasini. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (mas, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat., turmush madaniyati)ni izoxlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda madaniyat atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlataladi.

Madaniyat arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiy turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlataligan.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va b. shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Forobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, "oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi", bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, "madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-xunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar". Alisher Navoiy yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezoni deb insonparvarlik g'oyalariga muvofiqlikni tushundi.

19-asning ikkinchi yarmida maydonga kelgan demokratikma'rifatparvarlik harakatining namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar, Komil Xorazmiy va b. xalqni madaniyatli qilishning omili ilmma'rifatni egallahda deb bildilar. Ular o'rtasidagi qarshiliklari ilmmaorif va madaniyatni zo'r ehtiros bilan targ'ib qildilar. Mas, Furqat fikricha, ilmfan bir mash'-al bo'lib, insoniyatning baxt-saodat yo'lini yoritib turishi kerak.

19-a.ning oxiri va 20-a.ning boshida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyandalari, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy va b. o'zlarining ma'rifatparvarlik ishlari bilan madaniyat rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Ular turli gaz. va jur.lar chiqardilar, nashriyot va bosmaxonalar tashkil etdilar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochdilar, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni targ'ib qildilar, dunyoviy bilimlarni chuqur egallahsga da'vat etdilar. Ma'rifatchilikning keng quloch yoyishi samarasi o'laroq, xalqning umummadaniyati yuksala bordi.

Yevropada madaniyat deyilganda dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'limtarbiya berish tushunilgan (lot. cultura — yerni ishslash, parvarishlash; ruschadagi "kultura" so'zi ham shundan olingan). Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan. M.ga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xos (mas, Qad. Xitoyda jen, Hindistonda dharma). Ellinlar "madaniyatsiz" varvarlardan o'zlarining asosiy farqini "paydey", ya'ni "tarbiyalanganlik"da deb bilganlar. Qad. Rimning so'nggi davrlarida madaniyat tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o'rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi.

Yevropada Ma'rifatchilik davrida madaniyat va sivilizatsiyaning "tanqidi" vujudga keldi (J.J.Russo). Bunda "madaniy" millatlarning buzilganligi va axloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarxal bosqichida bo'lgan xalqlar axloqining soddaligi va sofligi qarshi qo'yildi. Nemis faylasuflari bu ziddiyatli holatdan chiqishning yo'lini "ruh" doirasidan, axloqiy (I. Kant), estetik (F. Shiller, romantiklar) yoki falsafiy (G. Gegel) ong doirasidan qidirdilar. Ular bu ong sohalarini haqiqiy madaniyat va inson taraqqiyotining omillari deb bildilar. 19-a. oxiridan boshlab "lokal sivilizatsiya" (O. Shpengler) degan qarash yuzaga keldi. Bu g'oya sivilizatsiyani muayyan jamiyat taraqqiyotining so'nggi bosqichi sifatida olib qaradi.

Fan-texnika taraqqiy topgan sharo-itda ko'pgina sotsiologlar va madaniyatshunoslar madaniyatning yagona g'oyasini izchil amalga oshirish mumkin emas, degan qoidani ilgari surdilar. Bu politsentrizm, G'arb bilan Sharqning azaldan qarama-qarshiligi va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa umumiyligini qonuniyatlarini inkor etuvchi nazariyalarida o'z ifodasini topdi.

Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiylariga qarama-qarshi o'laroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining o'zaro munosabati haqidagi qoidalardan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda madaniyatning sinfiy harakteri haqidagi qoidalarni ilgari surdi. Antagonistik formatsiyalarda har bir milliy madaniyatda ikki madaniyat borligi haqidagi lenincha qarash "hukmron ekspluatatorlik" Madaniyatiga "progressiv demokratik" va "sotsialistik" Madaniyat elementlarini qarama-qarshi qo'ydi. Ana shu qoidadan kelib chiqib,

mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan "madaniy inqilob" natijasida ko'pgina xalqlar Madaniyatning ajoyib durdonalari yo'q qilinib, madaniy merosning milliy ildizlari barbob etildi.

Madaniyat — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'ziga yaratgan sof Madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsada, unda ja-hon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Mas, san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va b. barchaga tegishlidir.

Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san'at asarlari, huquq, axloq normalari va h.k.)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan sub'yektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatları (bilim va ko'nikmalari, i. ch. va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari)ni ham o'z ichiga oladi.

I.ch.ning 2 asosiy turi — moddiy va ma'naviy i.ch.ga qarab madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va b.)ni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong , ma'naviyat sohalari kiradi (bilim, axloq, ta'limtarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va b.).

Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat. tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgarigi jamiyatning madaniy yutuklarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, M. sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham madaniyat ning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishga utishi milliy madaniyatga sinfiy yondashishdan, uni sun'iy tarzda "yagona umummadaniyat"ga aylanishdan saqlab qoldi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo'lgan so'nggi yetmish yil davomida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G'arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o'tmishi bir yoklama o'rganilib, uning ko'pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Xalqimizning ma'naviy qadriyatlari hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urfodatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Davlat tili to'g'risida"gi (1989 y. 21 okt.) qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997 y. 29 avg.)ning qabul qilinishi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (1997 y.), O'zbekiston davlat kon-servatoriysi (2002 y.), O'zbek milliy akademik drama teatri (2002 y.), estrada musiqasini rivojlantirish to'g'risidagi va b. bir qancha qaror va farmonlarning qabul qilinishi, bir qancha mutafakkir va allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib,

yubileyлari xalqaro miqyosda keng ni-shonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatni rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir.

Mutaxassislar ([faylasuf](#) va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda „antikultura“ („g'ayrimadaniyat“) degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun „Pop (ommaviy) madaniyat“ tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, „ommaviy madaniyat“, aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. „Ommaviy madaniyat“ shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lган mumtoz madaniyatga, [san'atga](#), uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib keladi.

[G'arb](#) dunyosining o'zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, "Bizga „To'qqizinchi simfoniya“ ([Betxoven](#)) kerak emas!" yoki „[Mona Liza](#)“ni loyga qorishtiramiz!" kabi jaholatparastlikka asoslangan xitoblar „ommaviy madaniyat“ tarafdarlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozadilar.

Ajablanarlisi, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham „ommaviy madaniyat“ targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom [Salvador Dali Leonardo da Vinching](#) „Mona Liza“ („Jakonda“) asarini kulgi qilib, [Mona Liza](#) lablari ustiga mo'ylov chizgan va „Mo'ylovli Jakonda“ asarini yaratgan. Mana shunday „achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi“ — „ommaviy madaniyat“ faoliyatining eng yetakchi belgilardan biridir.

„Ommaviy madaniyat“ namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni „isyon ifodasi“ deb bilishadi. „Nimaga qarshi isyon“ degan savol tug'iladi. Agar „pop-madaniyat“ dunyoga „ehson“ etayotgan „pop-art“ („tasviriy san'at“ desa ham bo'ladi), "pop- natijalariga qarab hukm yuritsa, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi.

Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, [san'at](#) — alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari „pop-madaniyat“ tarafdarlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. „Pop-art“ — ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

Chunonchi, „ommaviy madaniyat“ namoyandalaridan biri [Karl Manning](#) fikricha, atrof-borliqda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa, bu oddiy chiqindilar baayni arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos osori atiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, „san'at, madaniyat namunalar“ qatoridan o'r'in olar emish.

„Pop-art“chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi — ma'naviyatni o'ldirish va „narsalarga qullik“ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, „ommaviy madaniyat“ maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosи — avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lisch. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi.

Oziq-ovqat xavfsizligi.

«BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtida dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya’ni deyarli har sakkiz odamning biri to‘yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to‘laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo‘yining o‘sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda».

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «O‘zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari» mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqida shunday deb alohida ta’kidladi. Davlatimiz rahbari bildirgan fikr-mulohazalar nufuzli xalqaro tashkilotlar, ekspertlar, olim va mutaxassislar keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda yer yuzida aholi soni va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sishi o‘rtasidagi tafovut insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishni tobora qiyinlashtirmoqda. Shu bois ko‘plab mamlakatlar uchun aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta‘minlash masalasi asosiy muammoga aylanmoqda. O‘zbekistonda esa mustaqillik yillarda ushbu sohada juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi, jumladan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ikki barobar ortdi.

Bunga o‘z-o‘zidan erishilgani yo‘q, albatta. Oziq-ovqat ekinlari uchun yer maydonlarining kengaytirilgani, ularning meliorativ holati muttasil yaxshilanayotgani, eng muhimi, qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bu yutuqlarga omil bo‘lmoqda.

Ta’kidlash zarurki, istiqlolning ilk kunlaridan mamlakatimiz oldida global muammolardan biri bo‘lgan oziq-ovqat mustaqilligiga erishish hamda uning xavfsizligini ta‘minlash masalasini hal etishdek hayotiy vazifa ko‘ndalang turardi. Shu bois, yurtimizda bu o‘tkir masalani ijobjiy hal etish, aholini yetarli miqdorda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash borasida bir qator qonunlar, farmon va qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi hamda ularning izchil ijrosi ta‘minlandi. Bunda, birinchi navbatda, ilg‘or agrosanoat texnologiyalarini qo‘llash, qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish, rekonstruksiya qilish, marketing va jahon bozorlariga chiqish bo‘yicha yangi texnologiyalarni joriy etishga e’tibor qaratildi.

Aholining sifatli, zarur mikroelementlarga boy oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirishda mamlakatimizdagi oziq-ovqat sanoati korxonalari xomashyo bazasini yanada mustahkamlash, qayta ishlash sohasini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ko‘paytirib, uning eksportini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Yurtboshimiz nutqida jahonda kamdan-kam uchraydigan tabiiy va tuproq-iqlim sharoitlarining uyg‘unligi tufayli dunyodagi eng mazali va eng foydali meva-sabzavotlar faqat bizning mintaqamizda yetishtirilishi mumkinligiga alohida urg‘u berildi. Bugun mamlakatimiz 80 davlatga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishslash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqda. Shuningdek, o‘rik, olxo‘ri, uzum, yong‘oq, karam va boshqa ko‘plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi

bo‘yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o‘nta yetakchi davlat qatoriga kiramiz.

Konferensiya oziq-ovqat dasturini amalga oshirish tajribasini yanada rivojlantirish, yangi bilim va texnologiyalar bilan boyitish uchun imkoniyat beradi. Mazkur xalqaro anjuman yangi aloqalarni yo‘lga qo‘yish, hamkorlik ko‘la-mini kengaytirishga zamin yaratadi.

Butun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab doimiy ravishda o‘sib borayotgan bo‘lishiga qaramasdan, asosiy e’tibor yalpi ishlab chiqarishdan ko‘ra ko‘proq yuqori sifatga qaratilmoqda. Mamlakatimizda bu masalada chuqr o‘ylangan ishlar amalga oshirilayapti.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi ushbu xalqaro konferensianing yurtimizda ijtimoiy sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirishdagi ahamiyatini yuqori baholaydi.

Oziq-ovqat ta’minoti, shu bilan birga, eksportini oshirishga qaratilgan siyosatni o‘zining dasturiy maqsadlariga mos deb biladi hamda uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Partiyamizning Saylovoldi dasturida ichki bozorni o‘zimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar bilan to‘ldirish borasida vazifalar belgilangan.

Partiya tashkilotlari va deputatlik tuzilmalari shu asosda qator amaliy ish-larni olib bormoqda. Bundan keyin ham bu boradagi tashabbuslarimizni izchil davom ettirish talab etiladi.

Sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilishi, bunday mahsulotlarni qayta ishslash hajmining oshishi ayni paytda aholi bandligini ta’minlash, barqaror yangi ish o‘rnlari tashkil etish masalalari samarali hal etilishiga, joylarda ijtimoiy holat yanada yaxshilanishiga, odamlarning turmush farovonligi ortishiga xizmat qiladi.

Axborot xavfsizligi.

Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi»¹.

Islom Karimov

Ma'lumki, har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirilishini ta'minlaydi. Bunday jamiyatda, axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash keng ko'lamma amalga oshiriladi.

Axborotlashgan jamiyat tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborot dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahan kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda.

Hududiy joylashishidan qat'i nazar, kundalik hayotimizga turli xildagi axborotlar Internet xalqaro kompyuter tarmog'i orqali kirib keldi. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va o'zgartirish, yo'qotish kabi muammolardan himoya qilish dolzarb masala bo'lib qoldi.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan .

«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalgaga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi»². Darhaqiqat, 2002- yil 12-dekabrda qabul qilingan bu qonunda axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi deb belgilangan.

Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni muhofaza qilishi deganda, uzatilayotgan, saqlanayotgan va qayta ishlanilayotgan axborotni ishonchliliginiz tizimli tarzda

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. - Т., 2010.

Узбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш туғрисида»ги конуни // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 2004. - №1-2. - 10-м.

² Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чукурлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. - Т., 2010.

Узбекистон Республикасининг «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари туғрисида»ги конуни // Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. - 2003. - №1. - 2-м.

ta'minlash maqsadida turli vosita va usullarni qo'llash, choralarni ko'rish va tadbirlarni amalga oshirishni tushunish qabul qilingan.

Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida³ axborot va uning turlari to'g'risida quyidagi ta'riflar keltirilgan:

axborot - manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

axborotni muhofaza etish - axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora- tadbirlari;

ommaviy axborot - cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar;

hujjatlashtirilgan axborot - identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot;

maxfiy axborot - foydalanishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot. Ushbu ta'rif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy axborot resurslarini muhofaza qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011-yil 8-iyuldagagi PQ-1572-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 2011-yil 7-noyabr 296- sonli qarorida quyidagicha ifodalangan: *maxfiy axborot* - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklangan, davlat sirlariga mansub axborot mavjud bo'lмаган hujjatlashtirilgan axborot .

Konfedensial axborot - hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi⁴.

Saqlash, o'zgartirish, uzatish va ma'lum maqsadlar uchun foydalanish obyekti bo'lgan tevarak olam haqidagi ma'lumotlarni, keng ma'noda axborot deb tushunish mumkin. Bu tushunchaga ko'ra inson, uning hayot tarziga va harakatlariga ta'sir etuvchi doimiy o'zgaruvchi axborot maydoni ta'sirida bo'ladi. Axborot o'z tavsifiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarishga yoki tijoratga oid hamda maxfiy, konfedensial yoki nomaxfiy bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 848-XII-sonli «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi qonunning⁵ 1-moddasida davlat sirlari tushunchasi berilgan:

«Davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi».

Mazkur qonunning 3-moddasida davlat sirlarining toifalari keltirilgan:

«O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari - davlat, harbiy va xizmat sirlarini qamrab oladi.

Oshkor etilishi respublika harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarining sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlari uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar davlat sirini tashkil etadi.

³ Узбекистон Республикаси Олий Мажлисинг Ахборотномаси. - Т., 2003. - №1. - 2-м.

Алока ва ахборотлаштириш соҳасида ахборот хавфсизлиги: Атамалар ва таърифлар. Тармок стандарти: TSt 45-010:2010.

⁵ Узбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. - Т., 1993. - №5. - 232-м.

Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harbiy xususiyatga ega ma'lumotlar harbiy sirni tashkil etadi.

Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlari zarar yetkazishi mumkin bo'lган fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi».

Axborot xavfsizligi tushunchasi, uning tashkil etuvchilari tavsifi. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta'sirlar ahborot sohasidagi munosabatlarga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni qo'llab quvvatlovchi infrastrukturaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi №439-II-sonli

«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida axborot xavfsizligi *axborot borasidagi xavfsizlik* deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Axborot sohasida *shaxs manfaatlari* fuqarolarning axborotdan foydalanishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshishida, qonunda taqiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanishida hamda jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishda axborotlardan foydalanishlarida, shaxsiy xavfsizlikni ta'minlovchi axborot himoyasida namoyon bo'ladi.

Axborot sohasida *jamiyat manfaatlari* bu sohada shaxs manfaatlarini ta'minlashda, demokratiyani mustahkamlashda, ijtimoiy huquqiy davlatni qurishda, ijtimoiy hamjihatlikni qo'llab-quvvatlashda o'z aksini topadi.

Axborot sohasida *davlat manfaatlari* milliy axborot infrastrukturasining rivojlanishiga sharoitlar yaratishda, axborot olish sohasida shaxs va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshishida, O'zbekistonning hududiy birligini, suverenitetini va konstitutsiyaviy tuzumining mustahkamligini, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash maqsadida axborotdan foydalanishda, qonuniylik va huquq tartibotni qat'iy amalgaga oshishida, o'zaro tenglik va o'zaro manfaatdorlikdagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda ifodalanadi.

Axborot xavfsizligi - ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda huquqiy, ma'muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralarini qo'llaniladi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyil mavjud:

- *ma'lumotlar butunligi* - axborotni yo'qotilishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek ma'lumotlarni mualliflik huquqi bo'limgan holda hosil qilish yoki yo'q qilishdan himoya qilish;

- axborotning *konfedensialligi*. Axborot va uning tashuvchisining holatini belgilaydi va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko'chirishning) oldini olish ta'minlangan bo'ladi;

- foydalanish huquqlariga (mualliflikka) ega barcha foydalanuvchilar axborotdan *foydalana olishliklari*.

Ta'kidlash joizki, ayrim faoliyat sohalari (bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruv tizimlari, mudofaa va maxsus tuzulmalar) ularda ko'rildigan masalalarning muhimligi va xarakteriga ko'ra, ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchlilikiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo'yicha maxsus choralar ko'riliшини talab etadi.

Axborot xavfsizligining milliy xavfsizlik tizimidagi o'rni. XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining rolini ortishi natijasida

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o'r'in egallashini belgilaydi:

- milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi.
- inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish - bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlari, balki xavfsizlik sohasidagi barcha xavfsizlik obyektlarining asosiy elementlari hamdir;
- axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;
- milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog'laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka birkiritadi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeini belgilaydi. Axborot sohasidagi O'zbekistonning milliy manfaatlarini, ularga erishishning strategik yo'nalishlarini va ularni amalga oshirish tizimlarini o'zida aks ettiruvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. Shu bilan birga davlat axborot siyosati mamlakatning tashqi va ichki siyosatining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi hamda jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi.

Axborot xavfsizligining zamонавиј концепсијаси axborot xavfsizligini ta'minlovchi maqsadlar, vazifalar, tamoyillar va asosiy yo'nalishlar bo'yicha rasmiy nuqtai nazarlar majmuuni bildiradi.

Quyida axborot xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilari va jihatlari keltirilgan:

- axborotni muhofaza qilish (shaxsiy ma'lumotlarni, davlat va xizmat sirlarini va boshqa turdag'i tarqatilishi chegaralangan ma'lumotlarni qo'riqlash ma'nosida);
- kompyuter xavfsizligi yoki ma'lumotlar xavfsizligi - kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarning saqlanishini, foydalanishga ruxsat etilganligini va konfedensialligini ta'minlovchi apparat va dasturiy vositalar to'plami, axborotdan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish choralar;
- axborot egalariga yoki axborotdan foydalanuvchilarga hamda uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan ta'sir etishlardan axborot va uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaning himoyalanganligi;
- fuqarolar, alohida guruhlar va ijtimoiy qatlamlar, umuman olganda aholining yashash faoliyati, ta'lim olish va rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan sifatli axborotga bo'lgan talablarining himoyalanganligi.

Axborotni muhofaza qilish - axborot xavfsizligining (ma'lumotlarning butunligi, foydalana olish va zarur bo'lganda, ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash va uzatishda foydalaniluvchi axborot va uning zaxiralari konfedensialligi) muhim jihatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlar majmuidir.

Xavfsiz tizimda tegishli apparat va dasturiy vositalardan foydalanib, axborotni o'qish, yozish, hosil qilish va o'chirish huquqiga ega shaxslar yoki ular nomidan amalga oshiradigan jarayonlar orqali axborotdan foydalana olish boshqariladi.

Ma'lumki, absolut xavfsiz tizimlar mavjud emas, lekin «ishonish mumkin bo'lgan tizim» ma'nosidagi ishonchli tizimlardan foydalaniladi. Yetarlicha apparat va dasturiy vositalardan foydalanib, bir vaqtning o'zida turli maxfiylik darajasidagi ma'lumotlarni foydalanuvchilar guruhi tomonidan foydalanish huquqlarini buzmagan holda qayta ishlash imkonini beruvchi tizim ishonchli hisoblanadi.

Ishonchlilikni baholovchi asosiy mezonlar - bu xavfsizlik siyosati va kafolatlanganlik.

Xavfsizlik siyosati - xavfsizlik obyektlari va subyektlarining berilgan ko'pligining xavfsizligini ta'minlash protseduralari va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to'plami¹. Tizim xavfsizligini ta'minlashning aniq mexanizmlarini tanlash qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Kafolatlanganlik himoyaning passiv qismi bo'lib, tizimdan foydalanishda unga bo'lgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Ishonchli tizimda xavfsizlikka taalluqli barcha jarayonlar ro'yxatga olib borilishi kerak.

Axborotni muhofaza qilish tushunchasi axborot xavfsizligi tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Tor ma'noda axborotni muhofaza qilish deganda axborotni yig'ish, uzatish, qayta ishslash va saqlash jarayonida uning xavfsizligi (konfedensialligi va butunligi)ni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar va harakatlar majmui tushuniladi. Bu ta'rif axborotni muhofaza qilish va axborot xavfsizligi tushunchalarining bir-biriga yaqin ekanligini bildiradi.

Axborot xavfsizligi - bu uzatiluvchi, yig'iluvchi va saqlanuvchi axborotning xususiyati (holati) bo'lib, uning tashqi muhit (inson va tabiat) va ichki tahdidlardan himoyalanganlik darajasini xarakterlaydi.

Axborotni muhofaza qilish keng ma'noda axborot xavfsizligiga tahdidni oldini olish va ularning asoratlarini yo'q qilishga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va texnik choralar kompleksini bildiradi.

Axborotni muhofaza qilish axborotga bo'lgan salbiy ta'sir manbalarini hamda sabab va sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish ma'nosini anglatadi. Bu manbalar axborot xavfsizligiga tahdidlarni tashkil etadi.

Axborotni muhofaza qilish quyidagilarga yo'naltirilgan:

- axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tahidlarning oldini olish;
- tizimli tahlil va nazorat orqali real va ehtimoli katta bo'lgan tahidlarni aniqlash va ularni o'z vaqtida oldini olish choralar;
- aniq tahdidlar va jinoiy harakatlarni aniqlash maqsadida tahidlarni topish;
- jinoiy harakatlarni bartaraf etish, shuningdek aniq jinoiy harakatlarni hamda tahidlarni yo'q qilish bo'yicha choralar ko'rish;
- tahdid va jinoiy harakatlarning oqibatlarini yo'q qilish va mavqeini saqlash.

Ushbu barcha usullarning maqsadi axborot resurslarini noqonuniy tahidlardan himoya qilish va quyidagilarni ta'minlashdan iborat:

- konfedensial axborotlarning tarqab ketishini oldini olish;
- konfedensial axborot manbalariga noqonuniy kirishni taqiqlash;
- axborotning butunligi, to'liqligi va undan foydalana olishni saqlash;
- axborot konfedensialligiga rioya qilish;
- mualliflik huquqlarini ta'minlash.

Yuqoridaqlarni e'tiborga olib, axborotni muhofaza qilish deganda davlat, jamiyat va shaxslarning axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan usul, vosita va choralar majmuini tushunish mumkin.

Axborot xavfsizligiga tahdid va uning turlari

Axborotni muhofaza qilishning maqsadi va konseptual asoslari. Umuman olganda axborotni muhofaza qilishning maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin:

- axborotni tarqab ketishi, o'g'irlanishi, buzilishi, qalbakilashtirilishini oldini olish;
- shaxs, jamiyat, davlatning xavfsizligiga tahdidni oldini olish;
- axborotni yo'q qilish, modifikatsiyalash, buzish, nusxa olish, blokirovka qilish kabi noqonuniy harakatlarning oldini olish;
- axborot resurslari va axborot tizimlariga noqonuniy ta'sir qilishning boshqa shakllarini oldini olish, hujjatlashtirilgan axborotga shaxsiy mulk obyekti sifatida huquqiy rejimni ta'minlash;


- axborot tizimida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va konfedensialligini saqlash orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoyalash;
- davlat sirlarini saqlash, qonunchilikka asosan hujjatlashtirilgan axborotlar konfedensialligini ta'minlash;
- axborot jarayonlarida hamda axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalarini loyihalash, ishlab chiqish va qo'llashda subyektlarning huquqlarini ta'minlash.

Axborotni muhofaza qilishning samaradorligi uning o'z vaqtidaligi, faolligi, uzlusizligi va kompleksligi bilan belgilanadi. Himoya tadbirlarini kompleks tarzda o'tkazish axborotni tarqab ketishi mumkin bo'lgan xavfli kanallarni yo'q qilishni ta'minlaydi. Ma'lumki, birgina ochiq qolgan axborotni tarqab ketish kanali butun himoya tizimining samaradorligini keskin kamaytirib yuboradi.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi ishlar holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, muhofaza qilishning to'liq shakllangan konsepsiysi va tuzilishi hosil qilingan, uning asosini quydagilar tashkil etadi:

- sanoat asosida ishlab chiqilgan, axborotni muhofaza qilishning o'ta takomillashgan texnik vositalari;
- axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning mavjudligi;
- ushbu muammoga oid yetarlicha aniq ifodalangan qarashlar tizimi;
- yetarlicha amaliy tajriba va boshqalar.

Biroq, xorijiy matbuot xabarlariga ko'ra ma'lumotlarga nisbatan jinoiy harakatlar kamayib borayotgani yo'q, aksincha barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda.



Himoyalangan axborotga tahdidlar tushunchasi va uning tuzilishi. Umumiy yo'nalishga ko'ra axborot xavfsizligiga tahdidlar quyidagilarga bo'linadi:

- O'zbekistonning ma'naviy ravnaqi sohalarida, ma'naviy hayot va axborot faoliyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga tahdidlar;
- mamlakatning axborotlashtirish, telekommunikatsiya va aloqa vositalari industriyasini rivojlanishiga, ichki bozor talablarini qondirishga, uning mahsulotlarini jahon bozoriga chiqishiga, shuningdek mahalliy axborot resurslarini yig'ish, saqlash va samarali foydalanishni ta'minlashga nisbatan tahdidlar;
- Respublika hududida joriy etilgan hamda yaratilayotgan axborot va telekommunikatsiya tizimlarining me'yorida ishlashiga, axborot resurslari xavfsizligiga tahdidlar.

Axborot hisoblash tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq bo'lган uchta tashkil etuvchini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

- 1) axborot;
- 2) texnik va dasturiy vositalar;
- 3) xizmat ko'rsatuvchi personal va foydalanuvchilar.

Har qanday axborot hisoblash tizimlarini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilarning talablarini bir vaqtida ishonchli axborot bilan ta'minlash hamda ularning konfedensialligini saqlash hisoblanadi. Bunda axborot bilan ta'minlash vazifasi tashqi va ichki ruxsat etilmagan ta'sirlardan himoyalash asosida hal etilishi zarur.

Axborot tarqab ketishiga konfedensial ma'lumotning ushbu axborot ishonib topshirilgan tashkilotdan yoki shaxslar doirasidan nazoratsiz yoki noqonuniy tarzda tashqariga chiqib ketishi sifatida qaraladi.


Tahdidning uchta ko'rinishi mavjud.

1. Konfedensiallikning buzilishiga tahdid shuni anglatadiki, bunda axborot unga ruxsati bo'lмаганларга ма'lум bo'ladi. Bu holat konfedensial axborot saqlanuvchi tizimga yoki bir tizimdan ikkinchisiga uzatilayotganda noqonuniy foydalana olishlikni qo'lga kiritish orqali yuzaga keladi.

2. Butunlikni buzishga tahdid hisoblash tizimida yoki bir tizimdan ikkinchisiga uzatilayotganda axborotni har qanday qasddan o'zgar- tirishni o'zida mujassamlaydi. Jinoyatchilar axborotni qasddan o'zgar- tirdi, bu axborot butunligi buzilganligini bildiradi. Shuningdek, dastur va apparat vositalarning tasodifiy xatosi tufayli axborotga noqonuniy o'zgarishlar kiritilganda ham axborot butunligi buzilgan hisoblanadi. Axborot butunligi - axborotning buzilmagan holatda mavjud- ligidir.

3. Xizmatlarning izdan chiqish tahdidi hisoblash tizimi resurslarida boshqa foydalanuvchilar yoki jinoyatchilar tomonidan ataylab qilingan harakatlar natijasida foydalana olishlilikni blokirovka bo'lib qolishi natijasida yuzaga keladi. Axborotdan foydalana olishlilik - axborot aylanuvchi, subyektlarga ularni qiziqtiruvchi axborotlarga o'z vaqtida qarshiliklarsiz kirishini ta'minlab beruvchi hamda ixtiyoriy vaqtida murojaat etilganda subyektlarning so'rovlariga javob beruvchi avtomatlashtirilgan xizmatlarga tayyor bo'lgan tizimning xususiyatidir.

Axborotga tahdidlar




Axborot xavfsizligiga tahdidlarning toifalanishi. Axborot xavfsizligiga tahdidlar darajasiga kora quyidagicha toifalanishi mumkin:

a) shaxs uchun:

- axborotlarni qidirish, olish, uzatish, ishlab chiqish va tarqatish bo'yicha fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzilishi;
- fuqarolarni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqidan mahrum qilish;
- g'ayriixtiyoriy zararli axborotlardan fuqarolarning o'z sog'liqlarini himoya qilish huquqlari buzilishi;
- intellektul mulk obyektlariga tahdid.

b) jamiyat uchun:

- axborotlashtirilgan jamiyatni qurishga to'siqlar;
- jamiyatning ma'nnaviy yangilanish, uning ma'nnaviy boyliklarini saqlash, fidoyilik va xolislik, mamlakatning ko'p asrlik ma'nnaviy an'analalarini rivojlantirish, milliy, madaniy merosni targ'ib qilish, axloq me'yordagi huquqlaridan mahrum qilish;
- zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalarini taraqqiy etishi, mamlakat ilmiy va ishlab chiqarish potensialini rivojlantirish va saqlab qolishga qarshilik qiluvchi muhitni yaratish.



v) davlat uchun:

- shaxs va jamiyat manfaatlari himoyasiga qarshi harakatlar;
- huquqiy davlat qurishga qarshilik;
- davlat boshqaruva organlari ustidan jamoat nazorati institutlarini shakllantirishga qarshi harakatlar;
- shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ta'minlovchi davlat boshqaruva organlari tomonidan qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va tatbiq etish tizimini shakllantirishga qarshilik;
- davlat axborot tizimlari va davlat axborot resurslari himoyasiga to'siqlar;
- mamlakat yagona axborot muhiti himoyasiga qarshi harakatlar.

Axborot himoyasiga metodologik yondashuv - bu konfedensial

axborotlarni saqlash vazifasini turli bosqichlarda yechish bo'yicha asos bo'lувчи г'оялар, мумим тавсиялардир. Улар axborotni me'yoriy himoya qilish bazalarini yaratishda inobatga olinadi. Shuningdek, qonun va qonunosti aktlarini qabul qilishda me'yor sifatida tatbiq qilinadi hamda ularni bajarish majburiy xarakterga ega bo'ladi.

Axborotni muhofaza qilish tamoyillarini uchta guruhga bo'lish mumkin: huquqiy, tashkiliy hamda texnik razvedkadan himoyalanishda va hisoblash texnikasi vositalarida axborotga ishlov berishda axborotni muhofaza qilishdan foydalanish.

Axborotni muhofaza qilish tizimlaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, faqatgina kompleks axborotni muhofaza qilish tizimlari samarali bo'lishi mumkin. Unga quyidagi chora-tadbirlar kiradi:

1. Qonunchilik. Axborot himoyasi sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek davlatning huquq va majburiyatlarini qat'iy belgilovchi qonuniy aktlardan foydalanish.

2. Ma'naviy-etik. Obyektda qat'iy belgilangan o'zini tutish qoidalarining buzilishi ko'pchilik xodimlar tomonidan keskin salbiy baholanishi joriy etilgan muhitni hosil qilish va qo'llab quvvatlash.

3. Fizik. Himoyalangan axborotga begona shaxslarning kirishini taqilovchi fizik to'siqlar yaratish.

4. Ma'muriy. Tegishli maxfiylik rejimi, kirish va ichki rejimlarni tashkil etish.

5. Texnik. Axborotni muhofaza qilish uchun elektron va boshqa uskunalardan foydalanish.

6. Kriptografik. Ishlov berilayotgan va uzatilayotgan axborotlarga noqonuniy kirishni oldini oluvchi shifrlash va kodlashni tatbiq etish.

7. Dasturiy. Foydalana olishlilikni chegaralash uchun dastur vositalarini qo'llash.

Fizik, apparatli, dasturli va hujjatli vositalarni o'z ichiga oluvchi barcha axborot tashuvchilarga kompleks holda *himoya obyekti* sifatida qaraladi.

Odatda, so'nggi vaqtarda axborotdan foydalanish, saqlash, uzatish va qayta ishlashda turli ko'rinishdagi axborot tizimlarida amalga oshirilmoqda.

Axborot tizimi - bu odatda matnli yoki grafik axborotlarni yig'ish, saqlash, qidirish va qayta ishlashga mo'ljallangan amaliy dasturiy, ba'zan esa apparat-dasturiy nimtizimdir.

Ma'lumotlarning axborot tizimida mavjud bo'lishining moddiy asosi bu elektron va elektron-mexanik qurilmalar, shuningdek axborot tashuvchilardir.

Axborot tashuvchilari sifatida qog'oz, magnit va optik tashuvchilar, elektron sxemalar foydalilishi mumkin.

Demak, qurilma va nimtizimlarni hamda axborot tashuvchilarini himoya qilish zarur.

Turli axborot tizimlarida foydalanuvchilar xizmat ko'rsatuvchi personal hisoblanib, axborot manbai va tashuvchilari bo'lishi mumkin.

Shuning uchun himoya obyekti tushunchasi keng ma'noda talqin etiladi. Himoya obyekti deganda nafaqat axborot resurslari, apparat va dasturiy vositalar, xizmat ko'rsatuvchi personal va foydalanuvchilar, balki bino hamda u joylashgan hudud ham tushuniladi.

Axborotni muhofaza qilishning asosiy *obyektlariga* quyidagilar kiradi:

- davlat sirlari bilan bog'liq va konfedensial ma'lumotlarni o'zida saqlovchi axborot resurslari;

- vositalar va axborot tizimlari (hisoblash texnikasi vositalari, tarmoqlar va tizimlar), dasturiy vositalar (operations tizimlar, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari, amaliy dasturiy ta'minot), avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, aloqa va ma'lumotlarni uzatish tizimlari, ruxsati chegaralangan axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash texnik vositalari (ovozi yozish, ovozi kuchaytirish, ovozi eshitish, so'zlashuv va televizion qurilmalar, hujjatlarni tayyorlash, ko'paytirish vositalari hamda boshqa grafik, matn va harfli-raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari), konfedensial va davlat sirlari toifasiga oid bevosita qayta ishlovchi tizim va vositalar. Bunday tizim va vositalarni ko'pincha axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash texnik vositalari (AQITV) deb atashadi.

AQITV tarkibiga kirmaydigan, biroq konfedensial ma'lumotlar qayta ishlanuvchi hududga joylashgan texnik vosita va tizimlar ham mavjud. Bunday texnik vosita va tizimlar yordamchi texnik vosita va tizimlar (YOTVT) deb ataladi. Ularga quyidagilar kiradi: telefon, aloqa ovozi kuchaytirgich texnik vositalari, yong'in va qo'riqlash signalizatsiyasi tizimlari, radioaloqa tizimida ma'lumotlarni uzatish vositalari, nazorat- o'lchov qurilmalari, xo'jalik elektr asboblari va boshqalar, shuningdek ular joylashgan bino.

AQITVga statsionar jihozlar, periferiya qurilmalari, ulash liniyalari, taqsimlovchi va kommunikatsion qurilmalar, elektr manba tizimlarini o'ziga biriktirgan tizim sifatida qarash mumkin. Konfedensial ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan texnik vositalar, shuningdek ular joylashgan bino ham AQITV obyektini ifodalaydi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan himoya harakatlari qator kattaliklar bilan tavsiflanishi mumkin: tahdid xarakteri, harakat usullari, uning tarqaganligi, o'rab olish masshtabi kabilalar.

Tahdid xarakteriga ko'ra himoya harakatlari ma'lumotlarni oshkor bo'lishi, chiqib ketishi va noqonuniy kirishdan himoya qilishga yo'naltiriladi. Harakat usullariga ko'ra ularni kamomad yoki boshqa zararlarni: ogohlantirish, aniqlash, oldini olish va tiklash kabilarga taqsimlash mumkin. O'rab olish bo'yicha himoya harakatlari hududga, binoga, inshoatga, qurilmalarga yoki ularning alohida elementlariga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Himoya tadbirlarining masshtabi esa obyekt, guruh yoki individual himoya bo'yicha tavsiflanadi.

Axborot himoyasi turlari ikki asosiy belgiga ko'ra tasniflanadi:

birinchidan, axborot xususiyligi, aniqrog'i qo'riqlanadigan sirlar turiga ko'ra;

ikkinchidan, axborot himoyasi uchun qo'llaniluvchi kuchlar, vositalar va usullar guruhlari bo'yicha.

Birinchi guruhgaga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiritilishi mumkin: davlat sirlarini himoya qilish, davlatlararo maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish, tadbirkorlik sirlarini himoya qilish, xizmat sirlarini himoya qilish, mutaxassislik sirlarini himoya qilish va xususiy ma'lumotlarni himoya qilish.

Ikkinci guruhgaga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiradi: axborotlarni huquqiy himoyalash, axborotlarni tashkiliy himoyalash, axborotlarni muhandislik-texnik himoyalash.

Huquqiy himoyalash - bu huquqiy asosda axborot himoyasini ta'minlovchi maxsus qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar, qoidalar, jarayonlar va tadbirlar.

Tashkiliy himoya - bu bajaruvchilarga yetkazilishi mumkin bo'ilgan ixtiyoriy zararni bartaraf etuvchi yoki yengillashtiruvchi, bajaruvchilarning me'yoriy-huquqiy asosdagi o'zaro muomalasi va ishlab chiqarish faoliyatini qat'iy belgilash.

Muhandislik-texnik himoya - bu faoliyatga yetkaziluvchi zararlarga qarshilik qiluvchi turli texnik vositalardan foydalanishdir.

Axborot himoyasi vositalarini va usullarini tasniflash. Axborotni muhofaza qilishda foydalilaniluvchi asosiy usullar quyidagilar hisoblanadi: yashirish, ranjirlash, noto'g'ri ma'lumot berish, bo'laklash, sug'urta qilish, hisobga olish, kodlash va shifrlash.

Yashirish - axborotni muhofaza qilish usuli sifatida amaliyotda ma'lumotlarni himoyalashning asosiy tashkiliy usullaridan biri hisoblanadi, maxfiy ma'lumotlarga ruxsat etilgan shaxslar sonini chegaralaydi. Yashirish axborotlarni himoya qilishda juda keng qo'llaniluvchi usullardan biri hisoblanadi.

Ranjirlash axborot himoya usuli sifatida, birinchidan, maxfiy ma'lumotlarni maxfiylik darajasi bo'yicha taqsimlaydi, va ikkinchidan himoyalangan axborotga ruxsatni chegaralaydi.

Noto'g'ri ma'lumot berish - axborot himoya usullaridan biri bo'lib, biror obyekt haqidagi haqiqiy ma'lumot o'rniga atayin yolg'on ma'lumot tarqatishni anglatadi.

Axborotni bo'laklash usuli axborotni bo'laklarga bo'lib, uning biror qismi orqali to'liq ma'lumot olib bo'lmaslikni anglatadi. Bu usul harbiy texnika va qurollanish vositalarini ishlab chiqarishda, shuningdek yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Sug'urta qilish - axborotni muhofaza qilish usuli sifatida endigina tan olinmoqda. Uning ma'nosi axborot egasi huquqlari va manfaatlarini yoki axborot vositalarini an'anaviy tahdidlar va axborot xavfsizligi tahdidlaridan himoya qilishni bildiradi. Ushbu usul tijorat sirlarini saqlashda ko'proq qo'llanilishi ehtimoli mavjud. Axborotni sug'urta qilishda u dastlab, auditorlik tekshiruvidan o'tishi va xulosaga ega bo'lishi talab etiladi.

Axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usuli axborotni muhofaza qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Aynan inson, u korxona yoki tashkilot xodimi, maxfiy ma'lumotlardan voqif bo'lib, o'z xotirasida ko'plab ma'lumotlarni jamlaydi va ba'zi hollarda axborot chiqib ketishi manbaiga aylanishi mumkin hamda uning aybi bilan o'zgalar ushbu axborotga noqonuniy ega bo'ladilar. Axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usuli quyidagilarni nazarda tutadi:

- xodimni tarbiyalash, u bilan ma'lum sifatlarni, qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus ishlarni olib borish (vatanparvarlik, axborotni muhofaza qilish uning shaxsan o'zi uchun ham qanday ahamiyat kasb etishini tushuntirish);

- xodimni axborotni muhofaza qilish qoidalari va usullariga o'rgatish, konfedensial axborot tashuvchilar bilan amaliy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Hisobga olish axborotni muhofaza qilishning muhim usullaridan biri bo'lib, konfedensial ma'lumotlar tashuvchilarining hamda undan foydalanuvchilarining ixtiyoriy vaqtda qayerda joylashganligi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Ushbu usulsiz himoya muammosini hal etish juda qiyin. Sir saqlanuvchi axborotlarni hisobga olish tamoyillari:

- himoyalanuvchi axborotlarni tashuvchilarining barchasini ro'yxatga olish majburiyligi;

- muayyan axborot tashuvchini ro'yxatga olish bir marta bo'lishligini (takrorlanmasligini) ta'minlash;

- ro'yxatda konfedensial ma'lumot tashuvchining ayni vaqtda qaysi manzildaligini ko'rsatish;

- har bir himoyalangan axborot tashuvchining saqlanishiga yagona javobgarlik va hisobda ushbu axborotni ishlatgan foydalanuvchi haqida ma'lumotni aks ettirish.

Kodlash - himoyalanuvchi axborotni raqibdan yashirish maqsadida, axborotni kanal orqali uzatish jarayonida o'zgalar tomonidan tutib olinishi xavfi mavjud bo'lganda, uni kodlash usuli yordamida ochiq matnni sharthi axborotga aylantirish usulidir. Kodlash uchun odatda belgilar to'plami (belgilarni, raqamlarni va boshqalar), shuningdek axborotni tushunarsiz belgilar to'plami ko'rinishiga aylantirish imkonini beruvchi ma'lum qoidalarni tizimi foydalaniladi. Bu axborotni o'qish uchun esa uni yana o'z xoliga keltirish, ya'ni kodni ochish (kalit) kerak bo'ladi. Axborotni kodlash texnik vositalar yordamida yoki qo'lda amalga oshirilishi mumkin.

Shifrlash - axborotni muhofaza qilish usuli bo'lib, ko'pincha axborotlarni radioqurilmalar vositasida uzatishda, raqib tomonidan tutib olish xavfi bo'lganda qo'llaniladi. Axborotni shifrlash, uni o'zgalar tomonidan tutib olinganda ham kalitsiz ma'nosini tushunib bo'lmaydigan holatga o'tkazishni anglatadi.

Axborotni muhofaza qilish vositalari - bu axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etish uchun foydalaniluvchi muhandislik-texnik, elektr, elektron, optik va boshqa qurilma vositalar to'plamidir.

Axborotni muhofaza qilishning kadr va resurs ta'minoti. Davlat sirlarini tashkil etuvchi axborotni muhofaza qilishni tashkil etuvchi kadrlar tayyorlash tizimiga quyidagilar kiradi:

- Tashkilot va bo'linma rahbarlari.
- Axborotni muhofaza qilish bo'yicha maxsus komissiyalar.
- Yagona xavfsizlik xizmati tarkibiga kiruvchi ixtisoslashgan bo'linmalar.

Boshqa sohalar kabi axborotni muhofaza qilish sohasi ham kadrlar tayyorlashdan tashqari moddiy, iqtisodiy va axborot resurslari bilan ta'minlanishi kerak.

Moddiy resurslar axborotni muhofaza qilishda maxsus ahamiyatga ega. Unga maxsus ajratilgan bino, maxsus qurilmalar, qabul qilingan me'yorlar asosida attestatsiya qilingan kompyuter va orgtexnika, apparat vositalari, dastur vositalari, axborotni muhofaza qilish vositalari va boshqalar.

Axborot resurslari - bu tashkilot miqyosida axborotni muhofaza qilish bo'yicha optimal boshqaruv yechimlari qabul qilinadigan axborot. Unga quyidagilar kiradi:

- huquqiy axborot (xavfsizlik muammolar bo'yicha me'yoriy baza);
- tijorat axborotlari (ishlab chiqariladigan mahsulot va unda axborotni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar haqida axborot);
- ilmiy-texnik axborot (xavfsizlik bo'yicha mamlakat va chet el davlatlari siyosati haqida axborot);
- ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonlari bo'yicha axborot;
- tashkilotning axborot xavfsizligi holati, unga tahdidlar bo'yicha axborot-tahliliy faoliyat natijasida olingan tahliliy axborot.

Moddiy resurslar. Axborotni muhofaza qilishni loyihalashtirishni, uni ishga tushirishni moddiy ta'minotsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu ish murakkab sharoitlarda amalga oshiriladi: xavfsizlik sohasida raqobatchilik, xizmat ko'rsatuvchining kam xarajat qilib ko'p foyda olish istagi, xavfsizlik bo'yicha sifatsiz ishlarni amalga oshirishi va hokazo.

Axborot xavfsizligi uning egalari tomonidan himoyalanuvchi axborotning tarqab ketish, buzilish, yo'q qilish va modifikatsiya qilishni oldini olish maqsadiga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni ifodalandi.

Axborotni muhofaza qilish tizimi deganda davlat axborotni muhofaza qilish tizimini hamda muayyan obyektlardagi himoya tizimlarini tushunish kerak.

Davlat axborotni muhofaza qilish tizimiga quyidagilar kiradi:

- davlat me'yoriy hujjatlari, standartlar, boshqaruv hujjatlari va talablari;
- axborotni muhofaza qilish bo'yicha konsepsiya, talablar, me'yoriy-texnik hujjatlar va ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish;
- davlat mulki bo'lgan axborotni muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning tashkil etilishi, bajarilishi va amal qilinishi tartibi, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar ixtiyorida bo'lgan axborotni muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar;
- axborotni muhofaza qilish vositalarini sinash va sertifikatsiyalashni tashkillashtirish;
- axborotni muhofaza qilish uchun tashkilot va sohaviy koordinatsion tuzilmalarni tashkil etish;
- axborotni muhofaza qilishni tashkil etish bo'yicha ishlarni nazorat qilish;
- chet el fuqarolari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat mulki bo'lgan axborotdan yoki davlat tomonidan axborotni tarqatishga chegara qo'yilgan yuridik va jismoniy shaxslar ma'lumotlaridan foydalana olish tartibini aniqlash.

Axborotlashtirishning muayyan obyektlarida axborotni muhofaza qilishning maqsadlari ehtimoli bo'lgan tahdidlarning ro'yxati bilan belgilanadi.

Har qanday axborotni muhofaza qilish tizimi o'zining xususiyatiga ega bo'lish bilan birga umumiyl talablarga javob berishi kerak. Axborotni muhofaza qilishga ko'proq qo'yiladigan umumiyl talablar quyidagilardir:

Axborotni muhofaza qilish tizimi

- bir butunlikda bo'lishi;
- axborotning, axborot vositalarining xavfsizligini va axborot munosabatidagilar manfaatlarining himoyasini ta'minlashi;
- tizimning ichida uning elementlari orasida axborot aloqasini ta'minlashi;
- axborot faoliyatining texnologik kompleksini o'ziga qamrab olishi;
- foydalish vositalari bo'yicha turli, axborotdan foydalana olishlilik bo'yicha ko'p darajali iyerarxik ko'rinishda bo'lishi;
- axborot xavfsizligi choralarini o'zgartirish va to'ldirishga ochiq bo'lishi;

- nostandard bo'lishi (himoya vositalarini tanlashda buzzg'unchning himoya imkoniyatlari bilan tanish emasligiga ishonishmaslik);

- texnik xizmat ko'rsatishga oddiy va foydalanish uchun qulay bo'lishi;

- ishonchli bo'lishi kerak (texnik vositalardagi ixtiyoriy buzilish axborotning tarqab ketish kanali bo'lib qolishi mumkin).

Boshqa tizimlar kabi axborotni muhofaza qilish tizimi o'z ta'minotining ma'lum turlariga ega bo'lishi kerak. Shu sababli bu tizim quyidagilarga ega bo'lishi mumkin:

- *huquqiy ta'minot* (bunga bajarilishi majburiy bo'lgan me'yoriy hujjatlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar, talablar kiradi);

- *tashkiliy ta'minot* (bunda axborotni muhofaza qilish ma'lum bir tuzilmaviy birliklar orqali qo'llanilishi nazarda tutiladi: hujjatlar himoyasi xizmati; qo'riqlash, kirishga ruxsat berish xizmati; texnik vositalar yordamida axborotni muhofaza qilish xizmati; axborot-tahliliy faoliyat va boshqalar);

- *apparat ta'minoti* (bunda axborotni muhofaza qilish hamda muhofaza qilish tizimi faoliyatini ta'minlash uchun texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish nazarda tutiladi);

- *axborot ta'minoti* (ushbu ta'minot tarkibiga tizimning faoliyatini ta'minlovchi vazifalarni hal yotuvchi ma'lumotlar, axborotlar, ko'rsatkichlar, kattaliklar kiradi. Shuningdek, unga xavfsizlik ta'minoti xizmati faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli xarakterdagi ko'rsatkichlar: ruxsat berish, ro'yxatga olish, saqlash kabilalar ham kiradi);

- *dasturiy ta'minot* (bunga konfedensial axborot manbalariga noqonuniy kirish yo'llari hamda axborotni chiqib ketish kanallari mavjudligiga baho beruvchi turli axborot, hisobga olish, statistik va hisoblash dasturlari kiradi);

- *matematik ta'minot* (bu himoya uchun zarur bo'lgan har xil hisoblarni amalga oshirishda, buzzg'unchilar texnik vositalarining xavfi tomonidan me'yorlar, hududlarga baho beruvchi matematik usullarni qo'llashni nazarda tutadi);

- *lingvistik ta'minot* (axborotni muhofaza qilish sohasida mutaxassislar va foydalanuvchilar tomonidan qo'llaniluvchi maxsus til vositalarining to'plami);

- *me'yoriy-uslubiy ta'minot* (bunga axborotni muhofaza qilishni ta'minlovchi organlar, xizmatlar, vositalar faoliyati me'yorlari va reglamentlari, axborotni muhofaza qilish qattiq talab etiladigan sharoitlarda foydalanuvchilar tomonidan o'z vazifalarini bajarishda faoliyatni ta'minlovchi turli uslublar kiradi).

5 – mavzu. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda insonning psixofiziologik ko'rsatkichlarining ahamiyati

Ishdan maqsad. Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda insonning psixofiziologik holatlarini o'rghanish.

